

O‘ZBEKISTON RESPUBIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UDK 821.512.133

NUSRATULLOYEVA DILNOZA NUSRATULLOYEVNA

**“NAJMIDDIN KOMILOV TADQIQOTLARIDA TASAVVUF VA
KOMIL INSON MASALALARI TALQINI”**

5A111201 – “O‘zbek tili va adabiyoti” mutaxassisligi bo‘yicha

MAGISTR

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: dots. A. Xolmurodov

Navoiy – 2019

MUNDARIJA

KIRISH.....2

I BOB. NAJMIDDIN KOMILOVNING ILMYIY-IJODIY FAOLIYATI

1.1. Adabiyotshunosning ilmiy merosiga umumiy nazar.....7

1.2. Najmiddin Komilov tadqiqotlarida tasavvufiy ta'limotning o'rganilishi.....23

II BOB. OLIM TADQIQOTLARIDA TASAVVUF VA KOMIL INSON MASALALARI TAHLILI VA TALQINI

2.1. Najmiddin Komilov talqinida tasavvuf g'oyalari: obraz, ramz, majoz.....30

2.2. Navoiy asarlarida tasavvufiy qarashlar va uning o'rganilishi.....51

III BOB. KOMIL INSON TARBIYASIDA TASAVVUF VA BADIY IJOD

3.1. Tasavvuf va komil inson muammolarining badiiy adabiyotda o'rganilishi.....57

3.2. Tasavvuf ta'limotida inson ma'naviyati va kamoloti masalasi.....70

XULOSA.....73

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....75

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Milliy mafkuraning diniy falsafiy ildizlaridan biri, kishilarni komillik darajasiga yetkazishga xizmat qiladigan ta'limot-tasavvufdir. Tasavvuf islom dini zaminida va islomiy haqiqatlar bag'rida vujudga kelgan, avliyolar e'tiqodidan tug'ilgan, qariyb o'n ikki asrdan beri yashab kelayotgan ta'limot bo'lib, unda insonning bir qancha ezgu istaklari va ideallari mujassam. Tasavvuf asrlar osha kishilarni sog'lom e'tiqod, yuksak ma'naviyat irfoniy tafakkur, ma'rifat va madaniyatga chorlagan va tarbiyalagan. Jahonda tasavvuf diniy-irfoniy ta'limoti islom dinining keng tarqalishida muhim rol o'ynagan. Undagi komil inson g'oyasi, yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirish yo'llarini ko'rsatishga undab kelgan. Islomning jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shgan insonparvar din sifatida tarqalishi bevosita tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq. Chunki «xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat» mamlakatimizda strategik vazifalardan biri sifatida belgilab olindi¹.

Mustaqillik yillarida muqaddas islom ta'sirida rivojlangan mumtoz adabiyotni o'rganish, islom dinining keng taraqqiy etishi, hamda uning zamirida paydo bo'lgan tasavvuf ta'limotining ilg'or g'oyalarini o'rganish yo'lga qo'yildi. O'zbekistonda demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirishning yangi bosqichi boshlanib, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan din sohasida ham qator muhim hujjatlar imzolandi va amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Islom akademiyasi, Islom madaniyati xalqaro markazi tashkil etilib, ish boshladi. Buxoro shahrida tasavvufshunoslik maktabi faoliyat ko'rsatmoqda. Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy Najmiddin Kubro, Abduxoliq G'ijduvoni kabi mashhur mutasavviflar yubileyi nishonlandi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // «Xalq so'zi», 2017 yil 20 sentyabr.

Tasavvuf ta'limotining yirik namoyandalari ilmiy ijodi namunalaridan ko'plab asarlar nashr qilindi. Respublikamiz rahbari BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida «Butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni muhim vazifa»¹ ekanligi to'g'risidagi xulosasini davom ettirib, Oliy majlisga murojaatnomasida islom dinining, jumladan, tasavvuf ta'limotining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan diniy bag'rikenglikni ta'minlash sohasida ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi, 2017- yil 14- fevral PF-2774-son «Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiya markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017-yil 23-iyundagi PQ-3080-son Qarori hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda hamda mumtoz o'zbek adabiyotida tasavvuf ta'limotining o'rganilishida adabiyotshunos Najmiddin Komilov tadqiqotlarining muhim ekanligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti sifatida Najmiddin Komilovning "Tasavvuf" (Tasavvuf yoki komil inson axloqi). Birinchi kitob (1996), "Tasavvuf" (Tavhid asrori). Ikkinchi kitob (1999), "Tasavvuf" (2009), "Xizr chashmasi", "Tafakkur karvonlari" kitoblari hamda turli ilmiy jurnallar va to'plamlarda nashr qilingan maqolalari, ijtimoiy tarmoqlarda (www.e-adabiyot.uz; www.kh-davron.uz; www.turklib.uz;) joylashtirilgan suhbat va maqolalaridan foydalanildi.

Tadqiqotning predmeti sifatida olimning komil inson haqidagi qarashlari va adabiy-tanqidiy asarlarga ham tayanildi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan millatlar tashkiloti bosh assambleyasining 72- sessiyasida so'zlagan nutqi. / Xalq so'zi, -Toshkent, 2017. 20 sentyabr.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaati. // Xalq so'zi, Toshkent. 2017. -№ 258 (6952).

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi adabiyotshunos Najmiddin Komilovning asarlarida tasavvuf va komil inson masalalarining tadqiqi, olimning undan foydalanish mahoratini o'rganishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishishda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

adabiyotshunos olim Najmiddin Komilovning hayoti va ilmiy faoliyati, o'zbek adabiyotshunosligida tutgan o'rni, ilmiy asarlarining ma'naviy qimmati va dolzarbligi, tasavvuf adabiyotiga doir asarlarining o'rni va mohiyati, o'ziga xos metodologik xususiyatlari, shakllanish tarixi va nazariy taraqqiyot bosqichlarini yoritish;

- Najmiddin Komilovning tadqiqotlari asosida o'zbek va sharq adabiyotida tasavvufiy ta'limotning o'rganilishi, Navoiy asarlarida irfoniy mohiyat va masalalarning tadqiqiga yondashuv masalalarini tahlil etish;
- adabiyotshunos olim tadqiqotlarining kompozitsion va uslubiy xususiyatlarini ko'rsatib berish;
- Najmiddin Komilovni tasavvuf adabiyotini o'rganishga yetaklagan omillarni aniqlash;
- o'zbek va sharq adabiyotida tasavvufiy obrazlar, tasvir vositalari va ularning o'rni, komil inson tushunchasining nazariy konsepsiyasi kabi masalalarni o'rganishda Najmiddin Komilov asarlarining o'rnini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbek adabiyotshunoslik ilmida Najmiddin Komilov asarlari, tarjimashunoslikdagi tadqiqotlari, ilmiy faoliyatining turli jihatlarini taqriz, suhbat va maqolalarda yoritilgan bo'lsa-da, olimning tasavvuf hamda mumtoz adabiyotda komil inson masalalariga doir qarashlari maxsus o'rganilmagan. Mazkur kichik tadqiqotimizda Najmiddin Komilovning ilmiy faoliyatining nazariy va amaliy ahamiyatining monografik tadqiq etilishi ishning yangiligi sanaladi. Shuningdek:

Tasavvuf adabiyotining vakillari, ular tomonidan yaratilgan asarlarning o‘zbek tiliga tarjimalari va sharhlari (Farididdin Attor, Aziziddin Nasafiy, Najmiddin Kubro va Alisher Navoiyning forsiy qasidalari)ning olim tomonidan nazariy jihatdan asoslanganligini ko‘rsatib o‘tish;

navoiyshunoslik faoliyatining o‘ziga xos jihatlari, tasavvufiy timsollarning ma’no-mohiyati, talqin va sharh ilmining N.Komilov tadqiqotlaridagi o‘rni masalasi orqali olimning ilmiy mahorati dalillangan.

Tadqiqotning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek adabiyotshunosligida taniqli adabiyotshunos, professor Najmiddin Komilovning ilmiy va ma’rifiy ijodi mohiyati maxsus tadqiq qilinmagan bo‘lsa-da, uzoq yillardan buyon olimning tadqiqotchilik mahoratiga qiziqish katta. Bu qiziqish uning tadqiqotlariga yozilgan so‘zboshilarda va ularga bag‘ishlangan ilmiy taqrizlarda, maqolalarda, olimning turli yillarda nishonlangan yubiley tantanalari munosabati bilan chop qilingan to‘plamlardagi dil so‘zlarda yaqqol kuzatiladi.

Shuningdek, adabiyotshunos olim Najmiddin Komilovning hayoti va ilmiy faoliyatiga doir qarashlar B.Qosimov, E.Ochilov kabilarning maqolalarida, shuningdek, olimning 80 yillik yubeleyiga bag‘ilgangan Respublika ilmiy konferensiyasi materiallarida o‘zbek adabiyoti va Sharq mumtoz adabiyoti rivojiga qo‘shgan hissasi munosib tarzda e’tirof etilgan¹.

Yetuk adabiyotshunos, tasavvuf va mumtoz Sharq adabiyoti bilimdoni, mehnatkash inson, halol murabbiy sifatida elga tanilgan Najmiddin Komilov ko‘pchilik yoshlarning tafakkuri va ma’naviyatini yuksaltirishda jonbozlik ko‘rsatgan taniqli olim, bag‘rikeng va jonkuyar ustoz, fidoyi murabbiydir. Shuning uchun ko‘pchilik uning nomini faxr va iftixor bilan tilga oladi. Olim haqida yozilgan barcha maqolalar, avvalo, uning ijodiga bo‘lgan

¹ Qarang: Qosimov B. Asllik. So‘zboshi. Najmiddin Komilov. Tafakkur karvonlari. Sharq-u G‘arbning sivilizatsiya aloqalari, “SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent, 2011 y. B-6.; Vohidov R. Ilohiy ishq jozibasi (Professor Najmiddin Komilov suratiga chizgilar). Samarqand: Zarafshon, 1998.16-17-betlar; Ochilov E. Najmiddin Komilov- navoiyshunos. // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali 1/2017. B-37-44.

qiziqishni namoyon etadi. Tabiiyki, Najmiddin Komilovning tadqiqotchilik faoliyati, yaratgan ilmiy asarlarining ma'rifiy mohiyati va qimmatini haqida bildirilgan bu kabi fikr-mulohazalar, yaratilgan risola va maqolalar ushbu tadqiqotning amalga oshirilishida muhim metodologik yo'nalish bo'lishi, shubhasiz.

Tadqiqotning metodologik asoslari va tadqiq usullari. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning milliy o'zlikni anglash, milliy-ma'naviy qadriyatlarni tiklash, yanada rivojlantirish bo'yicha bildirgan fikr-muloazalari tadqiq jarayoniga metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusini yoritishda biografik, ijodiy-genetik, qiyosiy-tipologik, tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan nazariy xulosalar adabiyotshunos Najmiddin Komilovning ilmiy tadqiqotchilikdagi uslubiy mahoratini, u faoliyat yuritgan XX asr o'zbek adabiyotshunosligining tarixiy taraqqiyot tamoyillari, tasavvuf adabiyotining xususiyatlarini, komil inson tarbiyasiga doir nazariy va amaliy qarashlarning o'rganishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, adabiyotshunos olim tasavvufiy qarashlari, ilmiy mahoratini dalillashga asos bo'lgan materiallardan oliy o'quv yurtlarida o'zbek mumtoz adabiyoti, Sharq mumtoz poetikasi tarixi fanlari bo'yicha ma'ruzalar o'qishda, maxsus kurs va seminarlar o'tishda; umumta'lim maktablari adabiyot darslarida tasavvufiy obraz va istilohlarni, g'azal matni va tahlilini o'rgatishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tarkibiy qismi va tuzilishi. Dissertatsiya 78 sahifadan iborat bo'lib, kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

I BOB. NAJMIDDIN KOMILOVNING ILMIY-IJODIY FAOLIYATI

1.1. Adabiyotshunosning ilmiy merosiga umumiy nazar

Najmiddin Komilov 1939-yilda Tojikiston Respublikasining Panjikent shahrida tavallud topdi. Bolaligi Samarqand viloyatining Toyloq tumanidagi Payshanbasiyob qishlog'ida kechdi. 1960-1965-yillarda Samarqand Davlat universitetida tahsil olishi uning kelajakda zabardast olim bo'lib yetishishiga zamin bo'ldi. Bu yerda akademik Vohid Abdullayev, mumtoz adabiyotimizning zukko bilimdoni, professor Botirxon Valixo'jayev, hassos munaqqid Nuriddin Shukurovlardan saboq oldi. Ona tili bilan birga fors-tojik tilini mukammal bilishi uning ilmiy izlanishlar olib borishida muhim ahamiyat kasb etdi. Talabalik yillaridayoq ilmiy izlanishlar olib borishda yuksak salohiyatga ega ekanligini o'z vaqtida ustozlari bilishgan va qo'llab-quvvatlashgan. Jumladan, "Fors-tojik adabiyotida Alisher Navoiyga izdoshlik tarixidan" mavzusidagi diplom ishi davlat imtihon komissiyasiga Toshkentdan rais bo'lib kelgan professor N.Mallayev yuksak baho bergan. R.Orzibekov ilmiy rahbarlik qilgan ushbu izlanish mahsuli keyinchalik ilmiy rahbar hammuallifligida chop etilgan. Uning mumtoz adabiyot tadqiqotchisi bo'lib yetishishida Samarqand ilmiy muhiti, ayniqsa, Vohid Abdullayev maktabi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lganligini alohida qayd etish lozim. Universitet tahsilidan so'ng ko'p o'tmay, u 1968-1970- yillarda Toshkentda, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot institutining aspiranturasida o'qidi. O'zbek adabiyotshunosligida tarjima nazariyasi bilan jiddiy shug'ullangan, tarjimashunoslarning sarvari degan e'tirofga sazovor bo'lgan G'aybulla as-Salom rahbarligida "Ogahiy tarjimalari" yuzasidan nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Nomzodlik ishi yuksak baholandi. Chunki unda Xorazm tarjimachilik maktabi chuqur tahlil etildi, Ogahiyning tarjimonlik mahorati ilmiy asoslab berildi. Shundan keyin ham olim tarjimachilikning ilmiy va amaliy ahamiyati to'g'risidagi tadqiqotlarini davom ettirdi. Fanga ko'plab faktlar va materiallarni olib kirdi,

tarjimashunoslikni yangi xulosalar bilan boyitdi, uni yangi pog'onaga ko'tardi. Izlanishlarining samaralari doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilganda yana ilmiy jamoatchilikning e'tirofiga haqli ravishda sazovor bo'ldi. Olim hozirgi O'zbekiston Milliy universitetida tarjima nazariyasi kafedrasini mudiri, professori sifatida matbuot xodimlari, o'zbek tili va adabiyoti mutaxassislarini yetishtirishga ulkan hissa qo'shdi.

Najmiddin Komilov ilmiy-ijodiy merosini uch qismga bo'lish mumkin.

Bular:

- Tarjimashunoslik nazariyasi va amaliyotiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari. Bu aspiranturada tahsilni tamomlagandan keyingi qaynoq ilmiy izlanishlar davridir. Yosh olim tarjimashunoslikning dolzarb masalalariga murojaat qilib, o'zbek adabiyotida tarjimachilik tarixi bilan jiddiy qiziqdi va qator ilmiy jamoatchilikning diqqatini tortadigan ilmiy maqolalarini e'lon qildi. Uning Ogahiyning tarjimonlik mahorati tadqiqotiga bag'ishlangan nomzodlik ishi yuksak bahoga loyiq deb topilgani zahmatkash olim izlanishlarining samarasi edi. Keyin ham shu yo'nalishda izlanishlarini davom ettirdi. O'zbek tarjimashunosligi tarixi, ayniqsa, Xorazm tarjima maktabi olimni yangi-yangi izlanishlarga da'vat etdi. Bular uning doktorlik dissertatsiyasida o'z aksini topdi. Tarjima nazariyasi va amaliyoti masalalari doimo uning diqqat markazida bo'lib keldi. O'zi ham o'zbek tarjimachiligiga amaliy hissa qo'shdi. Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniy yohud javonmardlik tariqati" kitobini fors-tojik tilidan tarjima qilib so'zboshi va so'ngso'z bilan nashr ettirdi. Farididdin Attorning "Ilohiynoma"sidan ham tarjimalarni amalga oshirdi. Olimning tarjima nazariyasi va unga qo'shgan amaliy hissasi nihoyatda kattadir.

- Sharq va G'arb madaniy-adabiy aloqalari, sivilizatsiyasining mushtarakliklari tarixi masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlari. Bu olim faoliyatining yana bir qirrasini tashkil etadi. Bu mavzudagi izlanishlarida u ilgari adabiyotshunoslikda tadqiq etilmagan, omma e'tiboriga olib chiqilmagan masalalarni yoritdi. Bu bilan millatning faxr-u iftixoriga aylangan buyuk bobokalonlarimizning bizga qoldirgan ma'naviy-madaniy, adabiy merosining

qadr-qimmatini ko'rsatib berdi, sharq falsafasi, axloqiy-estetik qarashlarining dunyo tamaddunidagi ahamiyati, o'zni va mavqegini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Olimning tadqiqotlari mohiyati haqida so'z yuritar ekan, professor B.Qosimov alohida iftixor bilan shunday deydi: *“Muallif bizning aslimizni tanitishga, u orqali esa o'zligimizni anglashga yordam beradi. Biz minglab millatlar orasidagi qadrimiz, o'rnimizdan voqif bo'lamiz. Buyuk ajdodlarimizni tanish, ular bilan iftixor etish, ularga munosib bo'lishdek shirin va yoqimli tuyg'ular vujudimizni qoplaydi. Ayni paytda insoniyat borliqning yaktan, yakdil bir vujudi, yagona hokimi sifatida o'z-o'zini takomillashtirib borishga, dunyoni obod va farovon qilishga mahkum, va mas'ul ekanligi ham anglashiladi”*¹. Bu izlanishlarning mahsuli sifatida yaratilgan “Tafakkur karvonlari” kitobida Sharqning G'arb sivilizatsiyasiga ta'siri, G'arb ilm-fani, falsafasi, madaniy-adabiy yutuqlari Sharqdan oziqlanganligini ilmiy isbotlab berdi. Bunda olim juda ko'p ilmiy manbalarga tayanadi, B.Qosimov ta'biri bilan aytganda, G'arbning “insofli olimlari”ning e'tiroflarini keltiradi. Ayniqsa, italyan shoiri Dantening butun ijodi Sharq falsafasi, adabiy qarashlari bilan sug'orilganligini ta'kidlaydi. Nemis, fransuz, ispan, ingliz shoir va yozuvchilarining, XIX asr rus ma'rifatparvarlarining Sharq madaniy-adabiy merosiga munosabatlari bizning ko'z oldimizda Sharqni butun salobati va ma'naviy qudrati bilan namoyon etadi va qalbimizni faxr hislariga to'ldiradi.

- Tasavvuf va mumtoz poetika masalalari. Xalqimiz uzoq vaqt tasavvuf ta'limotidan bebahra qolib keldi. Muqaddas islom dinimizning bosh g'oyasi - Ollohni tanish, unga chin dildan e'tiqod qilish, uning visoliga yetishish uchun inson o'zini poklashi, komillik sari intilishi tasavvufda falsafiy talqinini topgan. Tasavvuf ta'limotini o'rganish, unda ilgari surilgan islomiy aqidalar mazmun-mohiyatini shuurlarga singdirish insonni ma'nadan yuksaltiradi, komillik sari boshlaydi. U asrlar osha ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotga, ma'naviy-ma'rifiy, adabiy jarayonga faol ijobiy ta'sir ko'rsatib keldi. O'tmishda yashab o'tgan

¹ Qosimov B. Asllik. So'zboshi. Najmiddin Komilov. Tafakkur karvonlari. Toshkent, 2011 y. B-6.

barcha mutafakkir olimlar va shoirlar tasavvuf ta'limoti masalalari bilan shug'ullandilar, ularni targ'ib etdilar, uning g'oyalarini asarlarida aks ettirdilar, bashariyatni axloqiy poklikka, komillikka chorladilar. Mustaqillik tufayli tasavvuf ta'limotini o'rganish, mohiyatini anglash, hayot tarzimizga chuqur singdirishga keng imkoniyat yaratildi. Bizga boy ma'naviy meros qoldirgan tasavvuf ta'limoti olimlari - buyuk bobolarimiz hayoti, ijodiy faoliyatini o'rganishga kirishildi, asarlari qayta-qayta nashr etila boshlandi. Bizga zamondosh shoir va yozuvchilarimiz, olimlarimiz tasavvuf ta'limoti mohiyati-mazmunini keng ommaga tushuntirish, uning g'oyalarini targ'ib etishga astoydil kirishdilar. Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunda o'z ilmiy-ijodiy faoliyatida tasavvufga murojaat qilmagan, undan ma'naviy oziqlanmagan, tasavvuf ta'limoti g'oyalarining naqadar xalqchil, insonparvar buyuk qudratga ega ekanligini targ'ib etmagan olim yoki ijodkor yo'q. Ana shu fidoyilar orasida Najmiddin Komilovning alohida o'rni bor. Olim o'tgan asr 80-yillari o'rtalaridan to umrining oxirigacha tasavvuf ta'limoti masalalari bilan shug'ullandi va uni targ'ib va tashviq etishda, keng ommaga mohiyat-mazmunini tushuntirishda yuksak fidoyilik namunasini ko'rsatdi. Tasavvuf ta'limotini o'rganishga bag'ishlangan "Komil inson axloqi" va "Tavhid asrori" kitoblari yaxlit bir asar bo'lib, unda muallifning naqadar chuqur izlanishlar olib borgani, nihoyatda ko'p zahmat chekkanligini his etamiz.

Tasavvufiy g'oyalarning badiiy asarlarda aks ettirilishi deyarli barcha adabiyotshunos olimlarimiz izlanishlarida ko'rinadi. Ayniqsa, navoiyshunos olimlarimiz mutafakkir shoir asarlari tahlilida albatta tasavvufiy tushunchalar, g'oyalar, axloqiy me'yorlar, bu ta'limotning hayotiy ildizlarini teran anglashga, ularning badiiy asarlardagi ifodasini ilmiy asoslab berishga harakat qilib keladilar. Professorlar B.Qosimov va I.Haqqulov singari olimlarimizning bu boradagi izlanishlari, ilmiy asarlari diqqatga sazovordir. Ammo N.Komilov tasavvufni muayyan bir ijodkor asarlari misolida emas, balki umuman, tasavvuf ta'limoti qanday ta'limot, uning zamiri nimadan iborat, tarixiy zaruriyat tufayli maydonga kelganligi, ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'siri, axloq, odob, ma'naviy-

ma'rifiy yuksalishdagi ahamiyatini dunyo tamadduni misolida, jahon adabiyoti durdonalari hisoblangan sof tasavvufiy asarlarni tahlil etish asosida tushuntirib beradi.

Najmiddin Komilov muallimlik kasbi bilan birga, tarjimonlikni ham baravar olib bordi. Kunduzi va kechalari tinim bilmadi–ilm va ijod zavqi bilan yashadi. “Kuch-quvvatga to‘lgan, sog‘lig‘im yaragan paytda, bariga ulgurishim kerak”, degan o‘g‘itlarga suyandi. Olim Sharq she’riyatining peshqadam vakillari – Abdurahmon Jomiy, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiyning bebaho asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan o‘girdi. Qisqa muddatda “O‘lmas satrlar qudrati”, “Ishqni olovlantirgan suv”, “Jon va jonon mojarosi”, “Timsollar timsoli”, “Axtarin ashk etdiyu...”, “Erur ko‘ngillarga safo ishq”, “Ahd qildim...”, “Soqiy, talx bo‘ldi ayshim” kabi teran ilmiy-tahliliy maqolalar “Yoshlik”, “Guliston” jurnallarida bot-bot bosildi-yu, olimni xalqimiz kashf qilganday bo‘ldi.

Najmiddin Komilov “Ibn Sino va Dante” (1983) kitobida o‘zbek olimlaridan birinchi bo‘lib Sharq-u G‘arbning adabiy aloqalarini davrlashtirdi. Darvoqe, qadimgi Xitoy, Yunoniston va Rim mutafakkirlari Konfutsiy, Suqrot, Aflotun (Platon), Arastu (Aristotel), Sitseronning davlat va jamiyat munosabatiga oid ta’limoti o‘rta asrdagi islom falsafasi shakllanishi, rivojlanishiga turtki bergandi. *“Sharq Uyg‘onishi ulug‘ allomalar, qomusiy bilim sohiblari, tafakkur va ijod pahlavonlarini maydonga keltirdi,—deydi Najmiddin Komilov.— Bu ulkan madaniyat umumbashariy sivilizatsiyaga qo‘shilib, uning uzluksiz rivojiga omil bo‘ldi, turli aloqa vositalari orqali G‘arbga o‘tib, yangi Yevropa tafakkuri taraqqiyotiga ta’sir ko‘rgazdi. Yetti asr davomida arab xalifaligi qo‘l ostida turgan Ispaniyaning Qurdoba, Siviliya, G‘ironada viloyatlarida Sharq ilm-ma’rifati keng qanot yoydi. Ispan qirollari arab tilini mukammal bilar, o‘z saroylarida arab shoir va olimlarini saqlar, barcha ispan ziyolilari arabcha ta’lim olib, sharqona urf-odat ruhida tarbiyalanar edilar”*¹.

¹ Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. Toshkent, “Yozuvchi” nashriyoti. 18-bet.

Olimning ta'kidlashicha, Sharq ilm-fani va madaniyatining Yevropaga ko'chishida tarjimaning roli, shubhasiz, buyuk bo'lgan. Arab tilida yaratilgan ilmiy adabiyotlarni lotin tiliga o'girish XII asrlardan boshlab avj olgan. Keyinchalik bu adabiyotlarni ispan, fransuz, kastil tillariga tarjima qilish kuchaygan, Toledo va Bolonya shaharlari o'sha davr tarjimachiligining yirik markazlariga aylangan edi.

“Bu qadimiy san’at” (1988) kitobida ustoz ilmiy g‘oyalarini izchil davom ettiradi. Kitob XVIII- XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitining Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy, Bobojon Sanoiy, Komil Xorazmiy, Bayoniy kabi zabardast ijodkorlar amalga oshirgan yirik tarjima asarlari tadqiqiga bag‘ishlandi. Darhaqiqat, Xorazm tarjima maktabi xizmati shuki, ular Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Kaykovus, Shayx Sa’diy Sheroziy, Xoja Hofiz Sheroziy, Amir Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy, Badriddin Hiloliy, Zayniddin Vosifiy singari buyuk zotlarning asarlarini ona tilimizga mohirona o‘girdilar.

Tasavvufni yaxshi anglamasdan turib, milliy ma’naviyat tarixi, sharq falsafasi, adabiyoti va san’atini puxta egallab bo‘lmaydi. Islom tarixi bizda tassavvuf tarixi bilan birga olib qaralgandagina to‘g‘ri yoritilishi mumkin, deb hisoblaydi professor N. Komilov. Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband, Xoja Ahror Vali, Mahdumi A’zam kabi mashhur shayxlarimiz e’tiqod qo‘ygan, umrini bag‘ishlab rivojlantirgan ham tasavvufning o‘zginasi. Xalq ma’naviyatining o‘chmas xazinasini Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Xorazmiy, Sa’diy, Hofiz, Lutfiy, Atoyi, Jomiy, Navoiy, Mashrab, Ogahiy, Amiriy, Sayqaliy va yana o‘nlab ulug‘ shoirlar asarlarining bosh g‘oyalari, timsol va tamsillari tasavvuf negizida qurilganligini ustoz ko‘p tadqiqotlarida sharhlab bergan. O‘shalarga suyanib, ***“tasavvuf, bu – Mutlaq ilohni tanish va sevish; avliyolar e’tiqodidan tug‘ilgan; pokiza axloq haqidagi ilmdir”***, degan xulosaga keladi.

Olimni kitobxonlar nozik didli mohir tarjimon sifatida ham yaxshi bilishadi. Xususan, Farididdin Attorning “Ilohiynoma” (1994), Husayn Voiz

Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniyyoxud javonmardlik tariqati” (1994), Shayx Aziziddin Nasafiyning “Zubdat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar qaymog‘i”–1996) kabi asarlarini ustakorlik bilan o‘zbekchalashtirdi.

Sharq mumtoz so‘z san‘ati va tasavvuf falsafasining bilimdoni bo‘lib tanilgan Najmiddin Komilov uzoq yillar tarjimashunos olim sifatida faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, u aslida ilmga navoiyshunos o‘laroq kirib kelgan edi. Uning tadqiqotchilik faoliyati 1965-yilda taniqli adabiyotshunos olim Rahmonqul Orzibekov rahbarligida yozgan “Fors-tojik adabiyotida Alisher Navoiyga izdoshlik tarixidan” nomli diplom ishi bilan boshlangan edi. Keyin bu salmoqli ishning asosiy xulosalari ustoz-shogird nomidan “Navoiy va adabiy ta’sir masalalari” to‘plamida nashr etildi¹. Maqolada, jumladan, shunday fikrlarni o‘qiymiz: “Alisher Navoiyning o‘zidan keyingi tojik adabiyotiga ta’siri, dastavval, shunda ko‘rinadiki, Navoiygacha o‘zbek shoirlari ijodida zullisonaynlik (o‘zbek va tojik tilida she’r yaratish) ancha keng tarqalgani holda (Xorazmiy, Lutfiy, Atoiy va boshqalar), tojik shoirlari ijodida bu hol deyarli uchramas edi. XV asrning oxiri va XVI asrning boshlaridan boshlab tojik adiblari orasida ham turkiygo‘ylik paydo bo‘ldi. Bu esa o‘zbek adabiyotini yuksaklikka ko‘tarib, o‘zbek tilining qudratini namoyish etgan Navoiyning bevosita ta’siri natijasi edi. Tojik shoirlaridan birinchi bo‘lib o‘zbekcha she’r yozgan Navoiyning shogirdlari Kamoliddin Binoiy, Badriddin Hiloliy, Davlatshoh Samarqandiy, Zayniddin Vosifiylar edi”².

Aslida Najmiddin Komilovdagi mumtoz adabiyotga muhabbat tug‘ma bo‘lib, otasi Komil Qodir va onasi Iqlima Abduquddus qizi o‘z davrining ma’rifatli kishilari bo‘lib, oilada Sharq so‘z san‘atining Shayx Sa’diy, Jaloliddin Rumiy, Xo‘ja Hofiz, Mir Alisher va Mirzo Bedil kabi zabardast namoyondalari asarlari mutolaa qilinardi. Sa’diyxonlik, rumiyxonlik, hofizxonlik, navoiyxonlik, bedilxonliklar ruhida tarbiyalanib, so‘zga erta oshno bo‘lgan yosh Najmiddin boshlang‘ich ma’lumotni ham oilada oladi; o‘z ta’biri bilan aytganda, “muallimi

¹ Qarang: Orzibekov R., Komilov N. Fors-tojik adabiyotida Navoiyga izdoshlik tarixidan // Navoiy va adabiy ta’sir masalalari (Maqolalar to‘plami) Fan, 1968. 330-343-betlar.

² O‘sha maqola. 332-bet.

avval” bo‘lmish onasi qo‘lida savod chiqarib, yaxshigina qur‘onxon bo‘ladi. maktab ostonasini kechikib hatlashi ham shundan. “Najmiddinning navnihol ruhiga singdirilgan ana o‘sha fazilat uni bir umr ilohiyot, sharq mumtoz adabiyoti, tasavvufga oshno qilib qo‘ydi. Undagi mumtoz ijodkorlar she‘riyatiga mayin ishoralar, ma‘rifiy-majoziy qochirmalar, yer-u samoni birlashtiruvchi mo‘jizaviy qudratga dahldor tashbehlardan teran lazzat olish baxti ana o‘sha nuqtadan boshlanadi”¹. Bu haqda olimning o‘zi keyinchalik shunday yozgan edi: “Navoiy -men qayta-qayta murojaat qiladigan, qayta-qayta o‘qib lazzatlanadigan, qalbim to‘ridan joy olgan shoir. Go‘daklikda birinchi bo‘lib qulog‘imga chalingan she‘rlar Hofiz Sheroziy bilan Alisher Navoiyniki bo‘lgan. Navoiyning rahmatli onamdan qolgan eski bir saylanma devonini mo‘tabar tutib, hamon saqlab yuraman.

Navoiy she‘rlarini har gal o‘qiganda yangi-yangi ma‘nolar topganimdan quvonib ketaman. Navoiy haqida soz‘ aytganim, ayrim sharhlar bilan bu zoti sharif asarlari ma‘nosiga yo‘l topganimdan baxtiyorman”².

Najmiddin Komilov serqirra iste‘dod sohibi bo‘lib, u nafaqat zabardast tarjimashunos, ayna paytda Sharq mumtoz adabiyoti va tasavvuf masalalarini teran tadqiq etgan nuqtadon adabiyotshunos, qator adabiy va tasavvufiy asarlarni mahorat bilan tarjima qilgan mohir mutarjim, yaxshigina ta‘bi nazmi bor hassos shoir edi. Bilimdon olim qalamiga mansub har bir maqola keng o‘quvchilar ommasi e‘tiborini tortib, adabiy jamoatchilik e‘tirofini qozongan, har bir kitobi o‘ziga xos adabiy voqea bo‘lgan. “Ibn Sino va Dante”(1983), “Tasavvuf”(1996),”Tavhid asrori”(1999) kabi salmoqli tadqiqotlari buning yorqin isbotidir. Bundan tashqari, u “Tarjimon mahorati”(1979),”Do‘stlik ko‘priklari” (1979) “Bu qadimiy san‘at” (1985),”Najmiddin Kubro” (1995), “Tafakkur karvonlari” (1999), “Faqr nuri porlagan qalb”(2001), “Xizr chashmasi” (2005), “Ma‘nolar olamiga safar” (2012) singari 14 ta risola va monografiya, 300 ziyod ilmiy va ilmiy-ommabop maqollar muallifi, Fariddin

¹ Vohidov R. Ilohiy ishq jozibasi (Professor Najmiddin Komilov suratiga chizgilar). Samarqand: Zarafshon, 1998.16-17-betlar.

² Komilov N. Xizr chashmasi. Toshkent: Ma‘naviyat, 2005.317-318-betlar.

Attorning “Mantiq ut-tayr” (2004, hammualliflikda), “Ilohiynoma” (1994), Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai Sultoniyyohud javonmardlar tariqati” (1994), Aziziddin Nasafiyyning “Zubdat ul-haqoyiq” (1995), Sulton Valadning “Maorif” (1999) asarlarini tarjima qilgan.

Najmiddin Komilov navoiyshunoslik rivojiga ham salmoqli hissa qo‘shdi. U hali tarjimashunoslik sohasida faoliyat ko‘rsatib yurgan davridayoq 1981-yili “Guliston” jurnalida “Xamsa” asarlarining nasriy bayonlariga bag‘ishlangan salmoqli maqolasini e‘lon qilgan edi. “Xamsa” dostonlarini ularning bir necha nasriy bayonlari bilan misrama-misra qiyoslab o‘rganish orqali zukko olim o‘shandayoq “Xamsa” otlig‘ behudud olam ichiga kirgan, san‘atkor shoirning qavat-qavat ma‘no qatlamlariga ega asarlari mazmun-mohiyatini anglash, sir-sinoatlarini kashf etish sari qadam qo‘ygan edi. “Xamsa”ni so‘z gavharlaridan bunyod etilgan besh nafosat qasriga tashbeh etib, uni “mukammal va murakkab asar, e‘joz maqomidagi –eng baland martabadagi san‘at obidasi” deb baholagan hamda “Xamsa”dostonlarini sharxlash, nasriy bayonga o‘tkazish muhim bir tadqiqotni amalga oshirish bilan barobar”degan xulosani ilgari surgan edi. ¹Qiyosiy tahlil asnosida u o‘zini navoiyshunos sifatida ham namoyon qilib, “Xamsa” va uning dostonlari, xususan, “Hayrat ul abror”ning shakliy qurilishi va ma‘no qirralari , hatto shoirning umumijodi bo‘yicha fikr-qarashlarini bildiradi va ulug‘ shoir ijodini yaxlit holda o‘rganish lozimligi masalasini o‘rtaga qo‘yadi. Maqola orqali u birinchilardan bo‘lib ulug‘ shoir asarlarini qisqartirish, diniy-tasavvufiy so‘zlar qo‘llangan o‘rinlarini olib tashlash, ularni tushunib-tushunmay tahrir qilish, bo‘lar-bo‘lmas tarashlashga qarshi chiqqan edi.

O‘tgan asr 80- yillarining ikkinchi yarmida jamiyatda esa boshlagan erkinlik epkinlaridan foydalanib, Najmiddin Komilov shoirning “Layli va Majnun” , “Farhod va Shirin” dostonlari, qator g‘azallarini tasavvuf jihatidan o‘rganishni boshlab berdi. “Timsollar timsoli”, “Suqrot-komil inson timsoli”, “Ishq otashining samandari” (hammualliflikda), “Jon va jonon mojarosi”, “Shoh

¹ Komilov N. Tarjimami yo talqin (“Xamsa”ning nasriy bayoni xususida) // Xizr chashmasi. 283; 287-betlar.

va darvesh hikmati”, “Axtarin ishq etti-yu, sovuq nafas oh subh”, “Erur ko‘ngulda safo ishq toza dog‘i bila”, “Ahd qildim: ishq lafzin tilga mazkur etmayin”, “Soqiyo, talx o‘ldi ayshim hajr bedodi bila” nomli sharhlari bilan “Sharq yulduzi”, “Yoshlik” jurnallari, “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasida chiqishlar qilib, ilmiy jamoatchilik va keng o‘quvchilar ommasining e‘tiborini qozondi. O‘z vaqtida adabiy hayotda voqea bo‘lgan bu maqolalar hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Ular orqali olim Alisher Navoiy asarlarining irfoniy mohiyatini ochgan, g‘azallaridagi so‘fiyona istiloh-timsollarning ma‘no qirralariga o‘quvchilar e‘tiborini tortgan, adabiyotshunoslarni mumtoz adabiyotni tasavvuf falsafasi nuqtai nazaridan tekshirishga da‘vat qilgan edi.

Navoiy g‘azallarini sharhlash olim ilmiy faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Sharhnavislik bilan muttasil shug‘ullanib, u yana shoirning bir qancha g‘azallarini sharhladi. U sharhlagan ulug‘ shoirning 50 ta g‘azali “Ma‘nolar olamiga safar” nomi bilan alohida kitob holda bosilib chiqdi.¹ G‘azallar tahlili bahona nuqtadon olim janrning o‘ziga xos jihatlari, vazn xususiyatlari, uning yakpora, voqeaband, oshiqona va orifona ko‘rinishlari, an‘ana va yangilik, tasavvuf falsafasi, uning obrazlar olami, asosiy timsol-tushunchalari, badiiy san‘atlar, xalqona urf-odat va rasm-rusumlar haqida ham muhim ilmiy-nazariy ma‘lumotlar beradi. Jumladan, oshiqona va orifona g‘azallar haqida shunday deydi: “Navoiy va ulug‘ shoirlar g‘azallarini ikki guruhga ajratib (orifona va oshiqona g‘azallar) o‘rganar ekanmiz, shunga amin bo‘lamizki, oshiqona g‘azallar “sof dunyoviy” mazmundagi asarlar emas, shu kabi orifona g‘azallar ham butkul dunyoviy g‘oyalardan holi deb bo‘lmaydi. Har ikki guruh g‘azallar ham inson fikri, ma‘rifati va hissiyotlarini ifodalaydi. Orifona g‘azallarda ilohiy ma‘rifatga erishish yo‘li bevosita, to‘g‘ridan-to‘g‘ri talqin etilsa, oshiqona g‘azallarda bu maqsad dunyoviy kechinmalar, kasrat olamining rang-barangligi, bunga oshuftalik va ana shu oshuftalik zamiridagi ilohiy go‘zallikni kashf etish, idrok etish buning ming-ming ko‘rinishdagi

¹ Komilov N. Ma‘nolar olamiga safar. Toshkent: Tamaddun, 2012. 72-bet

yo‘llari, qiynoqlari tasvirlanadi. Bunda “majoz” (surat, kasrat) va “haqiqat” (ilohiy nur) bir-biriga zid qo‘yilmaydi, biri qabul qilinib, ikkinchisi inkor qilinmaydi, balki majozdan Haqiqatga, suratdan Ma’noga qarab borish kuzatiladi. Navoiy dunyoqarashining bosh yo‘nalishi shu!”¹ Boshqa bir sharhida esa mazkur fikrlarni davom ettiradi: “Alisher Navoiyning oshiqona g‘azallarida ham orifona ma’nolar aks ettirilgan va bu “majoz usulida” ijod qiluvchi shoirlarda bir usul, an’ana edi”². Navoiy ijodini o‘rganish uchun kalitlar tavsiya etadi. Jumladan, u Navoiy asarlaridagi shikoyatlarning sababini “Ulug‘ qalb bilan jamiyat orasidagi ziddiyat sifatida olib, qaraydi, *“balki ideal orzular, niyatsiz go‘zallik olami, mutlaq komillik bilan rangsiz, mayda manfaatlar, noqis illatlar og‘ushidagi real turmush orasidagi adabiy antiteza, nomutanosiblik bu”*³. Olim fikriga ko‘ra, sharh bu tahlil, tadqiq, talqin va bayon muxtasi. Sharh bahona asar badiiyati va muallif mahorati ham ochib berilishi kerak. Asar mohiyatini ochish uchun uni boshqa asarlar bilan qiyoslash, naql va rivoyatlar keltirish ham taqozo qilinadi.

Najmiddin Komilov Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy” dostonlarining tasavvuf ta’limoti asosidagi yangicha talqinlariga bag‘ishlangan “Suqrot- komil inson timsoli”, “Ishq otashining samandari” (B.Eraliyev bilan hammualliflikda), “Hikmat va ibrat dostoni” nomli salmoqli tadqiqotlar muallifi hamdir.⁴ Tasavvuf va adabiyot munosabatlariga oid boshqa maqolalarida ham u mavzu taqozosiga ko‘ra “Hayrat ul-abror”, “Sab’ai sayyor”, va “Lison ut-tayr” dostonlarini ham qayta-qayta tahlil doirasiga tortgan. Jumladan, rostlik va yolg‘onchilik tadqiqiga bag‘ishlangan “Ajrim qiluvchi ko‘zgu” maqolasida “Hayrat ul-abror” va “Sab’ai sayyor” dostonlaridagi mavzuga doir fikrlar va hikoyatlarga murojaat qiladi. “Sayyid Hasan Ardasher-komil insonmi?” maqolasida Navoiyga ma’naviy ota maqomidagi bu najib inson shaxsiyati va tasavvufdagi darajasini shoirning Samarqanddan yo‘llagan

¹ Komilov N. Ma’nolar olamiga safar. Toshkent: Tamaddun, 2012. 110-111-betlar.

² Komilov N. Ma’nolar olamiga safar. Toshkent: Tamaddun, 2012. 45-bet.

³ Komilov N. Ma’nolar olamiga safar. Toshkent: Tamaddun, 2012. 131-bet.

⁴ Komilov N. Tasavvuf. Toshkent: “Yozuvchi”, 1996. 203-214; 214-229-betlar; Komilov N. Xizr chashmasi. 124-192-betlar.

masnaviysi, “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasi, vafotiga bag‘ishlab yozgan marsiyasi va “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” manqibasi tahlili asosida oydinlashtirishga harakat qiladi.

Tasavvuf va Navoiy ijodi- Najmiddin Komilov tadqiqotlari tayanch markazi hisoblanadi. U aynan Navoiy ijodini tasavvuf falsafasi, obrazlar olami va timsol-tushunchalari asosida yangicha tadqiq etgan maqola va sharhlari bilan navoiyshunoslikdan o‘zining mustahkam o‘rnini egalladi. Navoiyni anglash sari olib boradigan yo‘llar ko‘p-shulardan biri tasavvuf ekanligiga Najmiddin Komilov birinchilardan bo‘lib e’tibor qaratdi va o‘zi bu borada boshqalarga ibrat va rahnamo bo‘ldi. Uningcha, Navoiy e’tiqodining javhari-tasavvuf g‘oyalari va inson qalbi, inson ma’naviyati va kamoloti masalasidir. *“Sharq xalqlari tafakkuri tarixiga chuqur ildiz otgan tasavvuf ta’limotini yaxshi bilmay turib, Alisher Navoiy dunyoqarashi va adabiy merosini barcha murakkabliklari, falsafiy teranligi bilan to‘liq holda to‘g‘ri, haqqoniy yoritib berish mushkul”*, - deb yozadi uning o‘zi bu haqda”.¹

Olim tasavvuf va adabiyot munosabatini tasavvufning adabiyotga va adabiyotning tasavvufga intilishi tarzida tadqiq etadi. Shu paytgacha bu masala biryoqlama – tasavvufning adabiyotdan o‘z g‘oyalarini targ‘ib qilish maqsadida istifoda etishi tarzida o‘rganilib kelar edi. Aslida bu ta’sir ikki tomonlama bo‘lib, “adabiyot ham tasavvuf tomonga qarab intilgan. Tasavvuf g‘oyalari keng tarqalganidan keyin u gumanist shoirlarning qalbini rom etdi. Tasavvufning pok ilohiy ishq haqidagi, haq va haqiqat, najib insoniy xislatlar, kamolot kasb etish haqidagi g‘oyalari she’riyat g‘oyalariga aylandi- shoirlar qizg‘in bir ruh, ko‘ngil amri bilan irfoniy g‘oyalarni kuyladilar, hisobsiz lirik she’rlar, jahonga mashhur dostonlar, qissalar yaratildi”.²

Najmiddin Komilovning Alisher Navoiyning forsiy ijodi, xususan, qasidalari ustida olib borgan tadqiqotlari teran tahlillar va yangi ilmiy kuzatishlarga boyligi bilan ajralib turadi. U “Sittai zaruriya” tarkibidagi 6 qasida

¹ Komilov N. Timsollar timsoli // Xizr chashmasi. 59-bet.

² O’sha yerda, 200-bet.

– “Ruh ul-quds”, “Ayn ul-hayot”, “Tuhfat ul-afkor”, “Qut ul-qulub”, “Minhoj ul-najot”, “Nasim ul-xuld” qasidalarining har birini alohida-alohida tekshirib, ularning irfoniy mazmuni va badiiy qimmatini ko‘rsatib berdi. “Nasim ul-xuld”ning nasriy tarjimasini amalga oshirdi. Yana “Forsiyda ham suhan pardozi aylab”, “Tatabbu – ijodiy musobaqa” nomli shoirning forsiy merosiga oid umumlashtiruvchi maqolalar e‘lon qildi. “Tatabbu- ijodiy musobaqa” maqolasida tatabbu va adabiy ta‘sir masalalari xususida fikr yuritarkan, tatabbuni *“umumjahoniy adabiy-estetik hodisa deb qarash lozim”*ligini ta‘kidlaydi. “Chunki uning ko‘rinishlari G‘arb adabiyotida ham mavjud. Dante, Shekspir, Bokachcho, Gyote ijodi bunga misoldir. Sharqda bu hodisa xiyla qoidalashtirilgani, an‘ana tusini olgani bilan ajralib turadi”.¹

Najmiddin Komilov adabiy janrlar tarixi va o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha chuqur bilimga ega. G‘azal tarjimasi va sharhlari bahona g‘azal, shoirning forsiy qasidalarini tahlili jarayonida qasida, ruboiy tarjimasiga oid tadqiqotida ruboiy, “Xamsa” dostonlari nasriy bayonlari tadqiqi davomida “Xamsa” xususida keng va teran fikrlarni bayon qiladi. Xususan, u Navoiyning forsiy qasidalarini har tomonlama keng va chuqur tahlil qilib, ularning vazni, uslubi, mavzu ko‘lami, obrazlar olami, badiiy xususiyatlari haqida ko‘plab oxorli va diqqatga sazovor fikrlarni bildiradi: “Sittai zaruriya” qasidalarining har biri alohida xususiyat va uslubga ega. Chunonchi, deylik birida qiyosiy tashbehtar, boshqasida tahliliylik, yana birida esa tasviriy va tahliliy usul yetakchilik qiladi. Masalan, “Tuhfat ul-afkor”da tamsil keltirish, arab harflari bilan isbot qilib boriladi. “Ruh ul-quds” samoviy va yerdagi hodisalarni ketma-ket bayon etish, bu hodisalarning ilohiy qudrat natijasi ekanini tafakkuriy tahlil bilan ochib berish orqali yaratilgan bo‘lsa, “Ayn ul-hayot” qasidasida ham tamsil, ham bayon, ham ko‘tarinki ruhdagi tasvirlar bor. *“Minhoj ul-najot” esa ehtiros va zamirida tanbeh-nasihati ohangi bor til bilan yozilgan. Bu qasidada odamzodning nuqsonlarini ochib ko‘rsatishga shoir ko‘p e‘tibor qiladi*”². Shu

¹ Komilov N. Tasavvuf va badiiy ijod. // Xizr chashmasi. 27-bet.

² Komilov N. Tasavvuf va badiiy ijod. // Xizr chashmasi. 193-282-betlar.

bilan birga, bu qasidalar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ilk qasidada ilohiy tavhid, ikkinchisida me’roj, uchinchisida faqr va saltanat, to‘rtinchisida dunyoning bebaqo va bevafoligi, beshinchisida insoniy qusurlar, oltinchisida insoniy komillikning bosh yo‘li bo‘lgan tasavvuf va tariqat xususida so‘z yuritiladi.¹

Olimning “Tasavvuf va badiiy ijod”, “O‘lmas satrlar qudrati”, “Shoh va darvesh hikmati”, “Tatabbu- ijodiy musobaqa”, “Iskandar payg‘ambar bo‘lganmi?” kabi maqolalarida Navoiy va Sharq adabiyotining ba’zi masalalari o‘zining ilmiy talqinini topgan.² U Alisher Navoiyning davlatchilikka oid qarashlari, odil podshoh haqidagi g‘oyalari, ustod-shogird munosabatlari, ma’naviy-axloqiy tarbiya bilan bog‘liq fikrlarini ham tadqiq etib maqolalar yozgan. Shoir asarlarini o‘rganish muammolari ham olim ilmiy faoliyatida muhim o‘rin tutadi. “Navoiy va zamonamiz”, “Navoiy nafrati”, “Obi hayot”, “Ahli kamol korxonasi komili”, “Ajrim qiluvchi ko‘zgu”, “Odil podshoh haqida besh tanbeh”, “Adolat- davlat poydorligining asosi”, “Ustod va yosh iste’dod” maqolalari shular jumlasidandir.³ Jumladan, “Obi hayot” maqolasida shoir ijodini o‘rganish, tarjima va targ‘ib etish bo‘yicha bir qator muhim vazifalarni ilgari suradi. U Navoiy ijodini yaxlit bir tizim sifatida o‘rganish tarafdori va ko‘plab maqolalarida bu boradagi fikrlarini ilgari surishdan, targ‘ib-tashviq qilishdan charchamaydi.

Olim qator maqolalarida ulug‘ shoirni zamonga xizmat qildirish muammolari xususida ham o‘z qarashlari va taklif-tavsiyalarini ilgari suradi. Jumladan, “Navoiy va zamonamiz” maqolasida o‘qiymiz: *“Milliy-ma’naviy tiklanish siyosatimizning ustuvor yo‘nalishi qilib belgilangan ekan, bunda birinchi navbatda Navoiyni o‘zlashtirish, Navoiy ma’naviy xazinasini yangidan kashf etib, hayotimizga olib kirish asosiy vazifa bo‘lishi lozim.*

Navoiydan Insonga muhabbatni, hayotga muhabbatni, futuvvat va javonmardlikni , vafo va sadoqatni o‘rganishimiz lozim. Alisher Navoiyda

¹ Komilov N. Tasavvuf va badiiy ijod. // Xizr chashmasi. 252-bet.

² O‘sha yerda, 200-201-betlar.

³ O‘sha yerda, 201-bet.

*hamma narsa inson qalbi go‘zalligi, inson axloqi kamoloti nuqtai nazaridan olib qaraladi”.*¹

Najmiddin Komilov tadqiqotlarida keng dunyoqarash, teran tafakkur, qiyosiy tahlil va hassos qalbning ajoyib tarzidagi uyg‘unligini ko‘ramiz. Alisher Navoiy haqida yozar ekan, “hatto sof ilmiy mavzular haqida yozganda ham u o‘z fikrlarini shoirona qalbdan o‘tkazib, haroratli misralar orqali ifodalaydi”² deb yozgan olimning ayni fikrlarini uning o‘zi haqida ham aytish mumkin. U Navoiy asarlari mutolaasidan ruhlanadi, ilhom oladi va Navoiy asarlarini tahlil va tadqiq qilar ekan, to‘lqinlanib, hayratga tushib, ana shu ilhom otashida qaynab-jo‘shib qalam tebratadi, yonib haroratli jumlar tuzadi, fikrlarini ravon uslub va shirali tilda shoirona tashbehlariga omuxta holda jozibali bir trazda ifodalaydi. So‘zlarning oqib kelishi va o‘zaro uyushib, bir-biriga bog‘langan halqalarday mustahkam zanjir hosil qilishida ilhom lahzalaridagi yoniq yurakning haroratli nafasini tuygandek bo‘lamiz. Zero, ilhom bilan yonib yozilgan asarni sokin mutolaa qilib bo‘lmaydi. Najmiddin Komilov tadqiqotlarining badiiy asarday qiziqib o‘qilishi, xususan, “Tasavvuf va badiiy ijod”, “Timsollar timsoli”, “Jon va jonon mojarosi” kabi qator maqolalarining she’rday o‘qilishi shundan.

Komillik to‘g‘risida so‘z yuritilgan ayrim qadimiy kitoblarni o‘qiganda, komillik maqomi zamin odamiga nasib etmaydigan bir narsaga o‘xshab tuyuladi. To‘g‘ri, komil inson martabasiga yuksalish mashaqqatli – riyozat va zahmatni talab etadigan ish. Tasavvufiy mazmundagi komillik shartlari yanada og‘irroq. Lekin Navoiy masalani murakkablashtirmaydi. Aksincha, har qanday murakkablik va qiyinchilikni oson hal qilish yo‘li yoki usullarini ko‘rsatadi. Shulardan biri, ehtimolki, birinchisi, komillik da’vosini dildan supurib tashlab, noqislikka nigohni qaratish, ya’ni o‘z nuqsonlarining mushohadasiga kirishish:

¹ Komilov N. Navoiy va zamonamiz // Xizr chashmasi. 6-bet.

² O‘sha kitob, 287-bet.

*Noqis uldurkim, o‘zin komil degay,
Komil ulkim nuqsin isbot aylagay.*

*O‘z kamolidin demas ahli kamol
Ahli nuqson ichradur bu qilu qol.*

*Senki nuqson ichra komilsen, base,
Olim aytib o‘zni, johilsen base.*

«Nuqson ichra komil»lik degani nima? Bu – nafs dastidan xalos bo‘lmagan o‘zlik. Navoiyning komillik maslagi nafs hukmronligidan butunlay ozod yangi bir ruhoniy «Men» salohiyatiga asoslanadi. Insonning iymoni va vijdonini ana shu «Men» o‘z tasarrufiga olmaguncha, u hech qachon komillik zavqiga yetib borolmaydi. Hurlik, ezgulik, haqiqat to‘g‘risidagi iddaolar shunchaki quruq gap bo‘lib qolaveradi. Sharqning buyuk shoirlaridan biri «Ollohni juda ochiq ko‘rishni istasang, «Men»ni juda ochiq ko‘rishni o‘rgan», deganda nafs uchun «o‘lgan», ruh uchun hayot boshlagan o‘sha yangi «Men»ni e‘tiborda tutgan. Navoiy bir g‘azalida:

*Ruh rahmoniy erur, nafs erur shaytoniy,
Ikkisin bir-biriga qo‘shmoq emastur mashrut,*

- der ekan, xuddi shu «Men» taqdiri uchun javobgarlikka chorlagandir.

Najmiddin Komilovning birgina navoiyshunoslik faoliyatining o‘zi boy va rang-barang bo‘lib, ularni Navoiy va Sharq adabiyoti masalalari; tasavvuf va Navoiy ijodi; Navoiy dostonlarining yangicha nuqtai nazardan talqin qilish; Navoiy va fors-tojik adabiyoti; Navoiyning forsiy merosi; Navoiy g‘azallariga sharhlar yozish; Navoiy asarlarining nasriy bayonlari tahlili; Navoiy asarlarini o‘rganish muammolari; mumtoz adabiyot janrlari nazariyasi; Navoiy asarlarining tarjimalari; “Nasim ul huld” qasidasi tarjimasi kabi yo‘nalishlar

bo'yicha alohida-alohida mavzularga bo'lib o'rganish mumkin. Ma'lum bo'ladiki, navoiyshunoslik olim ilmiy faoliyatining bir qirrasini emas, balki asosiy yo'nalishi sanaladi.

1.2. Najmiddin Komilov tadqiqotlarida tasavvufiy ta'limotning o'rganilishi

Ma'lumki, inson ruhiy olamini osmon qadar yuksaklarga ko'taruvchi bu komillik yo'lga uzoq yillik pir-u muridlik mashaqqatlari evaziga erishiladi. Tasavvuf, bir tomondan, din va shariat, ikkinchi tomondan, falsafa va hikmat ilmi bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan o'ziga xos ta'limotdir. Farqi shuki, insonning mutlaq haqiqat, mutlaq adolat va poklikka erishish istaklari tasavvufda to'liq shakllanadi. Bu ehtiyoj, orzu kuchli zavq va ishtiyoqni, o'zini unutish va behudlikka olib borgan Ishqni keltirib chiqaradi, albatta. Bir vaqtlar tasavvufdagi o'z-o'zini takomillashtirish g'oyasi, axloqiy yuksalish, ezgulik, xayr, himmat, mardlik haqidagi qarashlar butun musulmon olamiga keng tarqalib, katta ijtimoiy hodisaga aylangan edi. XXI asrga kelib, sharqshunos olim Najmiddin Komilov "Tasavvuf" nomli ikki jildli ulkan tadqiqotida Sharq falsafiy tafakkurida muhim o'rin olgan, ma'naviyatimizni boyitgan axloqiy hikmatlarning ta'limotini yanada boyitdi, to'ldirdi.

Tasavvuf tarixida «so'fizm» tushunchasining lug'aviy ma'nosi va kelib chiqishi to'g'risida turli-tuman fikrlar mavjud. Islomshunos, sharqshunos, faylasuf tadqiqotchilar hozirgacha so'fizm iborasini turlicha tahlil qilib, uni muayyan tarixiy voqea-hodisalar, islom olamida yuz bergan o'zgarishlar, islom tafakkuri va mafkurasini rivojlanishi bilan bog'lab tushuntiradilar. Bu borada, biz, eng avvalo, atoqli tasavvufchi olim Najmiddin Komilovning «so'fizm» terminining etimologik mazmun-mohiyati to'g'risidagi fikrlarini asos qilib oldik. Yohud xorijiy mualliflarning bu boradagi fikr-mulohazalari N.Komilov qarashlarida mujassamlashgan. Yana shuni aytish kerakki, biz

ko'plab mualliflarning «so'fizm» iborasi atrofidagi fikrlarini alohida olib tahlil qilish, falsafiy sharhlash fikridan yiroqmiz.

Xullas, N.Komilov islomshunoslik fani tarixidan ilk bor yaratilgan, ikki kitobdan iborat «Tasavvuf» nomli asarida: «Xo'sh, so'fiy so'zi qayerdan paydo bo'lgan?, degan savolni qo'yib, unga quyidagicha javob yozadi: «Bu haqda bir necha xil qarashlar bor. Ba'zilar bu so'z «saf» so'zidan kelib chiqqan deyдилar, chunki so'fiy Iloh yo'lga kirganlarning birinchi safida turuvchidir. Ba'zi olimlar uni «suffa» so'zidan hosil bo'lgan deb aytadilar: as'hoobi suffa Rasululloh salallahu alayhi vassallam tirikligidayoq tarki dunyo qilgan taqvodor kishilar bo'lib, so'fiylar shularga taqlid qiladilar, deb tushuntiradilar. Yana bir guruh olimlar so'fiy so'zi «safo» so'zidan kelib chiqqan, bu toifaning qalbi safo oftobidek porlab turadi, deganlar. Yana ba'zilar so'fiy «sufuh» so'zidan yasalgan, sufuh - biror bir narsaning xulosasidir, bu jamoa, xalqning xulosasi bo'lganligi sababli ularni so'fiy deganlar, deb yozadilar. So'fiy so'zi «sof» so'zidan kelib chiqqan deguvchilar ham bor. Abu Rayhon Beruniy bo'lsa «Osor-ul boqiya» asarida ushbu so'zni yunoncha, «suf», ya'ni faylasuf so'zining oxirgi qismidan yasalgan deb ko'rsatadi. Ammo ko'pchilik so'fiy so'zi arabcha «suf» so'zidan hosil bo'lgan, degan fikrni bildiradilar. «Suf» so'zining lug'aviy ma'nosi jun va jundan to'qilgan matodir. So'fiylar ko'p hollarda jun chakmon yoki qo'y terisidan tikilgan po'stin kiyib yurishni odat qilganlari uchun, ularni jun kiyimlilar (forschasi pashminapo'sh), yani so'fiy deb yuritganlar. Bizningcha, shu keyingi etimologik ma'no haqiqatga yaqinroqdir, -deydi N.Komilov, - zero, so'fiy so'zining «suf» so'zidan yasalishi arab tili qonun-qoidalariga mos keladi»¹. Kitobda «suf» so'zidan so'fiy so'zi yasalganligi haqiqatga to'g'ri kelishligini «tasavvuf», «mustasuf», «mutasavvif» kabi arabcha iboralarning kelib chiqishi mazmun-mohiyati izohlab berilgan. «Arab tariqatining (tariqa), ya'ni yo'lning sirli g'oyalari

¹ Komilov N.Tasavvuf. Birinchi kitob. Toshkent, "Yozuvchi" nashriyoti. 34-bet.

adabiyotning zamonaviy adabiy tushunchalariga javob beradi va haqiqat va hayot tuyg'usini izlab topadi".¹

Sayyid Muhammad Hotamiy o'zining «Islom tafakkuri tarixidan» nomli asarida «so'fiy» so'zining etimologik ma'nosi to'g'risida o'z fikrini bildiradi. Muallif turli manbalar, asarlarda bayon etilgan fikr va qarashlarni keltirgan holda, so'fiy so'zining asl mohiyatini, so'fiylar o'z oldiga qo'ygan diniy va irfoniy maqsad-intilishlarining zamirida ochib bergan. Asarda keltirilgan ko'plab mualliflarning so'fiy so'zining kelib chiqishi va xususiyatlari to'g'risidagi lisoniy-lug'aviy, falsafiy-diniy tasavvurlari bu haqdagi bilimlarni kengaytirishga yordam beradi.

N.Komilovning "Tasavvuf" kitobning "Qalblarning sevgani" bobida o'rta asrlardagi tasavvuf bilan bugungi badiiy adabiyot farqi yaxshi ochib berilgan. Bizga ayonki, tasavvuf tariqatining Markaziy Osiyoga yoyilishi X-XI asrlarda yashagan buyuk mutasavvuf Abu Yusuf Hamadoniy nomi bilan bog'langan. Hamadoniy Buxoroga ko'chib kelgach, yerli xalq vakillaridan yuzlab muridlarga tasavvufning ahkomlaridan ta'lim beradi. Keyinroq muridlari ichida to'rt zabardast so'fiy – Abdulloh Barqiy, Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy yetishib chiqadi. G'ijduvoniy "xojagon" nomli irfoniy xususiyatga ega tariqatni taraqqiy etdiradi va Hamadoniy tortib kelgan "Silsilai sharif" – "Oltin zanjir" arab davlatlaridan o'zbek diyoriga ko'chadi.

Tasavvuf davomli suratda rivojlanib bordi va tasavvuf tarixida Irfon bosqichi (X-XIII asr) mumtoz davr sifatida qabul qilindi. Ibn Sino (980-1037) va irfoniy ishq falsafasi haqida tasavvufshunos olim Najmiddin Komilovning asarlarida izchil ilmiy talqinlar mavjud².

Prof. N.Komilov «Kubraviyadan firdavsiya, nuriya, rukniya, hamadoniya, ig'tishoshiya, nurbaxshiya kabi toifalar o'sib chiqqan»ini qayd etib, «xorazmlik buyuk shayxning tariqati butun Sharqqa tarqaldi, uning iste'dodli muridlari

¹ Institute of Slavic Studies, Polish Academy of Sciences. The author 2017

² Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1-kitob. – T., 1999. 57-bet.

donishmandlik, hikmat va insoniy poklik, ilohiy ma'rifat g'oyalarini turli millat va elatlar orasida yoydilar, islomning shuhratiga shuhrat qo'shdilar» deb yozganida tariqat kubrosi haqidagi ayni haqiqatni bayon qilgan edi¹.

Tasavvufning mag'zida ilmi Haq – botin ilmi, qalb tafakkuri yotadi. Inson o'z zakovatiga ishonib, Haqning yagonaligi va ulug'ligi haqida tafakkur qiladi. So'fiy shoirlar ijodining markazida ayni shu maqsadlar yotadi. Afsuski, biz mustamlakachilik yillarida adabiyot darsliklarida uni xalqimizdan yashirib kelgandik. Ustoz masalaning shu jihatiga e'tiborni qaratib, fandagi “bo'shliq”ni to'ldirishni o'ziga maqsad qilib olgandi. Professor N. Komilov Robiya Adaviya, Mansur Xalloy, Ahmad Yassaviy, Farididdin Attor, Abdullo Ansoriy, Abusaid Abulxayr, Abdurahmon Jomiy, Umar Hayyom, Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumi, Mashrab, Mirzo Bedil singari tasavvufning yirik vakillari ijodini izchil o'rganadi.

Tasavvufni ilmiy tadqiq qilish dinshunoslar va tarixchilar, faylasuf va adabiyotshunoslar, ruhshunos (psixolog) va faylasuflarning sa'y-harakatlarini talab qiladigan diniy falsafalar tizimining keng tarmoqli hodisalaridan biri bo'lgan ancha murakkab mavzu. Taniqli tasavvufshunos olim N.Komilov ta'kidlaganidek: *«Tasavvuf, bir tomondan, din va shariat, ikkinchi tomondan, falsafa va hikmat ilmi bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan o'ziga xos ta'limotdir»*.²

Ilk o'rta asr va keyingi davr mutafakkirlari diqqat-e'tiborini borliq, tabiat, Olohning tabiatga munosabati, olamning yaratilishi, shakl va materiya, zamon va makon, vaqt, uning moddiy va ruhiy olamni bilishdagi roli to'g'risidagi masalalalar band qilardi. Najmiddin Komilov umumlashtirib yozganidek, *«Ko'rinadiki, ahli kalomda ham, ahli hikmatda ham aqliy-mantiqiy ilm, tajriba qilish, bilim yetakchilik qiladi»*³. Borliq,

¹ Komilov N. Najmiddin Kubro. Risola. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1995. 29-bet.

² Najmiddin Komilov. Tasavvuf. T.: Movarounnahr. O'zbekiston, 2009, 245-6.

³ O'sha asar. 245-bet.

tabiat, inson to'g'risidagi ta'limot o'rta asrlar donishmandlari falsafiy tizimining o'zagini tashkil etgan.

O'rta asrlar g'oyaviy-falsafiy hayotida, avval ta'kidlanganidek, ikkita bir-birini inkor qiluvchi oqim mavjud edi, biri aqidaviy kalomga asoslangan ortodoksal (izchil) islom, ikkinchisi aql imkoniyati va qudratidan kelib chiqadigan dunyoviy bilimga suyanadigan falsafa. Ikkinchi oqim ma'lum darajada tasavvufda rasmiy din me'yorlaridan chiqish mumkinligini hisobga olgani uchun, hurfikrlilik manbai edi. Shu boisdan g'oyaviy falsafiy oqimlarning ontologik ildizlari har xil edi. Tasavvufdagi ontologiyaning mohiyat-mazmuni, uning teologik xususiyatlari haqida Najmiddin Komilovning quyidagi fikrlari masalani oydinlashtirib beradi. *«...tasavvufdagi ontologiya, yani olam haqidagi qarashlar ham irfoniy muhabbat tushunchasi bilan bog'liq ekanligini sezish mumkin, - deb yozadi olim. Unda tasavvufda keng tarqalgan vahdat ul- vujud ta'limotini olaylik. Bu ta'limotga binoan, Xudovand olamlarni o'z jamoli va kamolini namoyish etish uchun yaratdi. U o'z husnini tomosha qilish uchun o'ziga ko'zgu yaratdikim, bu bizni o'ragan moddiy olamdir»¹.*

Tasavvuf ilmining taniqli bilimdoni, professor Najmiddin Komilov *«So'fiylar zohirni emas, botinni rostlash, qalbning, ruhning sharaflanishi, kamoloti uchun kurashdilar»*, - deb yozadi, — *Jaloliddin Rumiyning ta'biri bilan aytganda: «Insonning ichi hurriyat olamidir. Zero inson qalbi Ollohning uyi, bu uy qancha toza, sarishta bo'lsa, Olloh nuri, Olloh ilm-u hikmati unda shuncha aks etadi. Ko'ngil, bu - javhar, so'z esa, araz (hodisa) deydi Rumi. Olov- Ollohning ishq, olov- ma'no, olov -Haq ishqida yongan ko'ngil dardi. Demak, mohiyati ishqqa olib boradi. Shu bois Jaloliddin Rumiyning «Ma'naviy masnaviy» asarini inson tafakkurini olovlantirgan, ilohiy mohiyatini anglash sari olib boradigan Ishqning tafsiri desa bo'ladi»².*

¹ O'sha asar. 247-bet.

² Najmiddin Komilov. Rumiyni anglash ishtiyoqi. Jaloliddin Rumi. Ma'naviy-masnaviyning birinchi jild, birinchi kitobiga kirish so'zi. T.: Sharq, 1999, 10-bet.

Shu kabi ilohiyot ruhi bilan sugʻorilgan soʻfiylarning taʼlimotida zohiriy va botiniy olam uygʻunlashib, Olloh, tabiat va insonning yagonaligi haqidagi dunyoqarash yuzaga chiqadi.

Ahmad Yassaviy va uning taʼlimotiga doir qarashlar Najmiddin Komilovning bir qator maqola va ilmiy asarlarida oʻz talqini topgan. Professor Najmiddin Komilov bu ulugʻ donishmand shoirning tasavvuf taʼlimotidagi insoniylik va Olloh visoliga intilish toʻgʻrisidagi gʻoyalarni chuqur tahlil qilib bergan. *«Xoja Ahmad Yassaviy qarashlari mohiyatini anglash uchun, shubhasiz tasavvuf taʼlimoti ruknlariga murojaat qilish lozimdir, - deb yozadi muallif, - Tasavvuf oʻzini anglash va shu orqali Allohni sevib tanish va bilish ilmi hisoblanadi. Oʻz-oʻzini anglash, oʻz nuqsonlarini, ayb-u qusurini anglash demakdir. Shunday ekan, tasavvufni insonning oʻz vujudi, nafsiga qarshi isyoni, oʻz-oʻzidan qoniqmaslik, noroziligi sifatida talqin etish oʻrinlidir. Holbuki, insonning bosh vazifasi - oʻz Tangrisini topish, Unga intilish boʻlmogʻi kerak»*.¹

N.Komilov Yassaviyning tarkidunyochilik aqidasi mohiyati ustida toʻxtalib, uni quyidagicha sharhlaydi: *«Ahmad Yassaviy va umuman barcha tariqat ahli fikriga koʻra, Iloh yoʻlini tanlagan solik dunyoviy ashyolar, yaʼni mol-mulk bilan bogʻliq tashvishlardan xalos boʻlishi lozim. Shundagina solikning qalbi butkul Alloh ixtiyorida boʻladi. Allohning gʻayri (Raqib) yodidan qutuladi. Chunki Xudo muhabbati va dunyo muhabbati bir-birini inkor etuvchidir. Axir ajdodlarimiz hayot deb, tirikchilik deb ruhni va uning sohibi Tangrini bilganlar. Moddiylikni ular latif ruhning ziddi-zindoni hisoblaganlar, jumladan, vujudimiz ham. Hattoki, dunyodagi hayot, tiriklik neʼmati oxiratdagi abadiy hayot uchun sarflanuvchi vosita, xolos. Ayni haqiqat boʻlgan bu qarash berilsa, uning ishqi yolgʻon, qilmishi riyo, xalqni gumroh etuvchi shaytondir, deydi Ahmad Yassaviy»*.²

¹ Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. Toshkent, "Yozuvchi" nashriyoti. 18-bet.

² Komilov Najmiddin. Tasavvuf. T.: Movarounnahr, Oʻzbekistan, 2009. 333 -335- betlar.

Ko‘rinadiki, adabiyotshunos N.Komilov ilmiy tadqiqotlarida Sharq va o‘zbek mumtoz adabiyotida tasavvufiy qarashlarning maydonga kelishi va badiiy adabiyotda tutgan o‘rniga masalasini o‘rganish yetakchi ahamiyat kasb etadi. Olim birinchilardan bo‘lib, tasavvuf adabiyotining tarixi va musulmon xalqlari olamida tutgan o‘rnini tarixiy, badiiy va ilmiy asarlar orqali tadqiq etdi.

II BOB. OLIM TADQIQOTLARIDA TASAVVUF VA KOMIL INSON MASALALARI TAHLILI VA TALQINI

2.1. Najmiddin Komilov talqinida tasavvuf g‘oyalari: obraz, ramz, majoz

Diniy-tasavvufiy adabiyot mumtoz adabiyotning ajralmas bir qismi bo‘lib kelgan. Bu adabiyot vakillari jamiyat taraqqiyoti, kishilik jamiyatining ma’naviy ongini shakllantirishga, rivojlantirishga munosib hissa qo‘shib kelgan. Chunki har qanday jamiyatning ijtimoiy-madaniy muhiti, o‘sha muhit yetishtirgan mutafakkirlarning fikr-qarashlariga asoslanib shakllanadi. Tasavvufga asos bo‘lgan tarkidunyochilik, so‘fiylik ta’limoti VIII asrning o‘rtalari IX asrning boshlarida paydo bo‘ldi. Bu davrda so‘fiylar qatoriga muhaddislar, qorilar, jangchilar, kosiblar, tijoraatchilar kirganlar. Bu davrda so‘fiy yoki tasavvuf terminlari hali keng tarqalmagan edi, uning o‘rniga zuhd (tarkidunyochilik) yoki zohid, obid so‘zlari ishlatilar edi. Ilk davr so‘fiylarining zohid va obidlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan – Qur’oni Karim oyatlari ustida chuqur fikr yuritish, Qur’on va Payg’ambar a.s.sunnatlariga qat’iy amal qilish, kechalari nafl ibodatlarini bilan bedor o‘tkazish, kunduzlari ro‘za tutish, hayot lazzatlaridan vos kechish, gunohdan saqlanish, yuqori tabaqalardan o‘zini uzoq tutish, halol va harom orasini juda uzoq tutish, o‘zini Alloh ixtiyoriga topshirish (tavakkul) va hokazolarni ta’kidlash mumkin. So‘fiylar o‘zlarida faqr, rizo, sabr xususiyatlarini shakllantirganlar. So‘fiylik ta’limoti insonga asosiy obyekt sifatida qaraydi. Insonning amallarini boshqaradigan ruhiyatidagi mayda qirralarini ham chuqur tahlil qilish, shaxsiy kechinmalarga e’tibor bilan qarash va diniy haqiqatlarni chuqur his qilish ularga xos xususiyatlardan edi. IX asrda tasavvuf nazariyoti va amaliyotini ishlab chiqish davom etdi. Basra bilan bir qatorda Bag’dod va Xuroson so‘fiylik maktablari eng nufuzli maktablar sifatida yuzaga keldi. Ularning namoyondalari so‘fiyning ichki dunyosiga asosiy e’tiborni qaratar edilar. Ularning “ahvol”, “maqomat”lariga batafsil tavsiflar berdilar. Tasavvufda Allohga yetishish faqatgina yuzni ko‘rish bilangina emas,

unga qo‘shilib ketish (fano, baqo) bilan bo‘lishi ham mumkin degan fikr ilgari surildi. Tasavvufda musulmonlar o‘z qalblarini pok saqlab, Alloh Taoloning muhabbati yo‘lida taqvoni o‘zlariga kasb qilib oldilar. Bu kabi kishilarga “so‘fiy” deb nom berildi. “So‘fiy” so‘zi “suf” (jun mato) so‘zidan kelib chiqqanligi haqidagi fikrlar umum qabul qilingan fikr hisoblanadi. Chunki so‘fiylarning asosiy belgilari ularning dag‘al jundan kiyim kiyishlari edi. Tasavvuf ta‘limoti islom dinining mafkuraviy asoslarining targ‘ibotchisi sifatida maydonga kelib, asrlar davomida insoniyatning hayoti, yashash tarzi, ma‘naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Olamni bilishga intilish, inson ruhini tadqiq etish, uni poklash, komillik sari chorlash, Haq visoliga yetishish yo‘llarini o‘rgatish, ko‘rsatib berish tasavvufning bosh maqsadlari sanaladi. Diniy aqidaparastlik va mutaassiblik, hokim tabaqalarning ayshu ishratga g‘arq hayot tarzi, talonchilik va manfaatparastlikka qarshi bo‘lgani tufayli bu ta‘limot mehnatkash xalq tomonidan qizg‘in qo‘llab-quvvatlandi va keng yoyildi. Shuning uchun Haq va haqiqatga tashna ziyolilar qalbini bu ta‘limot tezda zabt eta oldi. Uning ilk namoyandalari qadimdan madaniyati rivojlanib kelgan ilm-madaniyat markazlaridagi shahar hunarmandlari orasidan yetishib chiqqan. Shuningdek, tasavvufning futuvvat (javonmardlik) bilan qo‘shilib ketishi hodisasi ham uning yetakchi mafkuraviy qurolga aylanishiga sabab bo‘ldi. Javonmardlik do‘stu birodarlarga, yaqin kishilarga yordam berish, muhtojlarga moddiy va ma‘naviy ko‘maklashish, hamisha saxovatga da‘vat etuvchi kishilar hisoblanishgan. Ular oddiy xalq orasidan yetishib chiqqan hunarmandlar, sipohiyalar, nom chiqargan pahlavonlar bo‘lishgan. Ular o‘z hayot tarzi bilan kishilarni pok bo‘lishga, shaxsiy hayotda halol yashashga, zohiran va botinan namuna bo‘lishga, nokas va nomardlarga yaqinlashmaslikka chorlaganlar. Tasavvufning insonparvarlikka yo‘g‘rilgan g‘oyalari ma‘naviy tafakkurga kuchli ta‘sir o‘tkazdi va adabiyotning ilhom sarchashmasiga aylandi. VIII asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan bu ta‘limot shundan buyon adabiyotning bosh g‘oyalarini badiiy ifodalashning vositasi, ilmiy-nazariy fikrlarning

metodologik asosi, badiiy tafakkurning qudratli quroli bo‘lib xizmat qilib kelyapti.

O‘zbek adabiyotida tasavvuf ta’limotining ahamiyati haqida so‘z borar ekan, uning adabiy-badiiy tafakkur, estetik qarashlarga ta’siri bu ta’limot maydonga kelgan ilk davrlarga borib bog‘lanadi. XI-XII asrlardan boshlab yozma adabiyotda yaratilgan barcha asarlar ana shu ta’limot g‘oyalaridan oziqlandi, ezgu insoniy g‘oyalarni kuyladi, tasavvufiy tushunchalar va bilimlarni targ‘ib etdi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” deb nomlangan pand-nasihat ruhidagi asarlarda yuksak insoniy fazilatlar, axloqiy mezonlar tasavvuf ta’limoti ilgari surgan talablar va tushunchalar asosida talqin etiladi. Rabg‘uziyning ikki jilddan iborat “Qisasi Rabg‘uziy” asari, Ahmad Yassaviy hikmatlari, XIV asr ikkinchi yarmi va XV asr birinchi yarmida yashab o‘tgan Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy va boshqa shoirlar ijodida tasavvuf g‘oyalarini kuylash yanada katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Prof. N.Komilov tadqiqotlarida mumtoz adabiyotdagi timsollarning irfoniy mohiyati o‘rganilgan. Olim Navoiy asarlaridagi bu obrazlarni turli maqolalarida, kitoblarini tahlil etgan. Mumtoz she‘riyatimizda shoirlar go‘zallarning qoshu ko‘zini, xatt-u xol va zulfini, qaddu ruxsorini vasf etib, ularni badiiy aks ettirishda turli timsollardan foydalanganlar. Bu timsollar ba‘zan o‘zlarining asl ma‘nolaridan tashqari, majoziy ma‘nolarga ham ega bo‘lib, ma‘lum bir falsafiy nuqtai nazarni, ruhiy holatni yashirincha izhor etishga ham xizmat qilganlar. Bunday majoziy ma‘noni o‘zida mujassam etgan timsollar, asosan, tasavvuf ruhidagi she‘rlarga mansub bo‘lib, ular orifona ruhdan tashqari, dunyoviy tuyg‘ularni ham ifodalaganlar. Garchi bu timsollar asl ma‘nosida tushunilganda ham, kitobxon asardan zavqlansa-da, lekin uning yashirin ma‘nosining mag‘zini topganida va o‘sha yashirin ma‘no asosida asarni uqqanida o‘quvchi undan beqiyos ko‘p zavq oladi, shoirning ma‘naviy dunyosini imkoni darajasida kashf etadi.

So‘fiyona ramz va timsollar adabiy merosimizga o‘zining chuqur izini bosgan bo‘lib, doimo nafis adabiyot muxlislari va tadqiqotchilarining diqqat

markazida turgan. Buning natijasi o‘laroq, so‘fiy istilohlarining bir qator lug‘atlari va sharhlar yozilgan. Sayyid Ne‘matulloning (vafoti 1431 y.) “Risola dar istilohoti ahli sufiya” (“Tasavvuf ahli qo‘llaydigan atamalar haqida risola”), Abdurahmon Ahmad Surning (XVII a.) “Kashf ul lug‘ot va islohot” (“So‘zlar va atamalar kashfi”), Shayx Ruzbexon Baqliy Sheroziyning (vafoti 1209 y.) “Aroyis” va “Kitob ul anvor fi kashfil asror” (“Kelinchaklar” va “Sirlarni ochish uchun nurlar kitobi”), Lohijiyning “Sharhi gulshani roz”, Abdurahmon Jomiyning “Lavome” va “Lavoeh” (“Yarqiroq narsalar” va “Ravshanliklar”), bulardan tashqari yana “Lug‘oti maslaki muttaqin” (“Taqvodorlar maslagi lug‘ati”), “Mirotul-ushshoq” (“Oshiqlar ko‘zgusi”), “Istilohoti shuaro” (“Shoirlar qo‘llaydigan istilohlar”) kabi lug‘atlar va sharhlar shular jumlasidandir.

Tasavvuf ta’limotining javonmardlik falsafasi, ayniqsa, adabiyotda o‘zining keng ifodasini topdi. Alisher Navoiy ijodida javonmardlikni ulug‘lash, uni poklanish, Haq visoliga yetishishning bir yo‘li ekanligini tasdiqlash bosh g‘oyalardan biriga aylandi. Navoiy deydi:

Muruvvat borcha bermakdir, demak yo‘q.

Futuvvat borcha qilmakdir, yemak yo‘q.

Bu - javonmardlikning she‘riyatdagi go‘zal ta’rifi. Javonmardlik falsafaning asosiy mazmun-mohiyati kishilarni saxovatli bo‘lishga chorlash, o‘zida borini birovdan qizg‘anmaslik, yordamga muhtoj kishilarga muruvvat ko‘rsatish, ammo buni minnat qilmaslikka da’vat etishdir. Atoqli olim Najmiddin Komilovning “Komil inson axloqi” kitobida futuvvatning quyidagi ruknlari ajratib ko‘rsatiladi:

- muhtoj kishilar, miskin darveshlarga beg‘araz va beminnat moddiy yordam ko‘rsatish;
- amaliy ish, tadbir va chora qo‘llab, boshiga mushkul tushgan kishining mushkulini oson qilish, hojatini chiqarish;
- dardga chalingan kishilarni bepul davolash, har xil tibbiy yordam ko‘rsatish;

– qiyin ahvolda qolgan, yo‘lini yo‘qotganlarga qo‘ldan kelganicha to‘g‘ri maslahat berish, yo‘l topishga ko‘maklashish;

– ota-onasiz go‘daklar, yetimlarni parvarish qilish, tarbiyalash;

– musofirlar, mehmonlar hurmatini joyiga qo‘yish, ularni har jihatdan xursand qilish;

– qalb qo‘ri bilan yoshlarga ilm berish, odamlarga o‘z hunari, ilmi va kasbini qizg‘anmasdan o‘rgatish;

– qiyin ruhiy ahvolga tushganlarni, bemorlarni mehribonlik, rahm-shafqat bilan parvarishlab hayotga qaytarish;

– silai rahmga amal qilish, ya‘ni qarindosh-urug‘, ota-ona va farzandlar holidan xabar olib turish, ularni sevish va muhtoj bo‘lsalar yordamni ayamaslik;

– tariqat birodarlari, piru ustozlar hurmatini joyiga qo‘yish, ularning orqasidan yomon gap gapirmaslik, sha‘nu sharafi, nomusini himoya qilish;

– o‘z millati, el-ulus manfaati, sharafini himoya qilish, Vatan xavf ostida qolganda, barcha iste‘dodi, molu-jonni sarflab bo‘lsada, qahramonliklar ko‘rsatish, Vatan uchun jon fido etib, uning mustaqilligi, ozodligini saqlashga erishish kabi ruknlarini sanab o‘tganlar. Adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov ta‘biri bilan aytganda “Falsafa ota, adabiyot ona, tasavvuf esa ularning farzandidir” deb bejiz aytmaganlar. Tasavvuf va adabiyot necha asrlardan buyon bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lib kelgan. Ikkisini bir-biridan ayro o‘rganib bo‘lmaydi. Tasavvuf ruhni poklash, qalbni ma‘rifatga yetkazish, hamda o‘zlikni anglashdir.

Tasavvuf ta‘limotining asl mohiyati, uning adabiy-badiiy tafakkur rivojiga ta‘siri, tasavvufiy bilimlar va tushunchalarning badiiy adabiyotda aks etishi masalasini keng va atroflicha yoritgan, uning ilmiy-ahamiyatini chuqur tahlil qilgan olim professor Najmiddin Komilovdir. Olim bu vazifani bajarish yo‘lida uzoq yillar ilmiy izlanishlar olib bordi. Ana shu izlanishlarning mahsuli sifatida “Komil inson axloqi” va “Tavhid asrori” nomlari bilan ikki kitobdan iborat yaxlit “Tasavvuf” asari dunyoga keldi. Unda olim tasavvuf ta‘limotining kelib chiqishidan boshlab bugungi kungacha bo‘lgan taraqqiyot bosqichlari,

badiiy adabiyotda tasavvufiy tushunchalarning ifodasi, ularning axloqiy tarbiyadagi ahamiyati, insonni komillik sari boshlashdagi oʻrni, taʼsir kuchini sharhlab berdi. Soʻfiyona adabiyot haqida fikr yuritib, "...tasavvufni sheʼr bilan bayon etish -falsafani, ilohshunoslikni sheʼrga olib kirish demak. Shu bois biz tasavvufiy adabiyotni tom maʼnoda falsafiy adabiyot deymiz"¹, deydi. Farididdin Attor, Jaloliddin Rumi, Ibn al-Arabiy, Jomiy va Bedillar buyuk faylasuflar sanalishadi, ammo ularning irfoniy asarlari sheʼriy yoʻlda yozilgan. Irfoniy asarlar ham ikkiga ajratiladi. Birinchi qismida tasavvuf taʼlimoti bayon etilgan, soʻfiyona fikrlar bilan istiloh etilgan asarlar kiradi. Tasavvuf tadqiqotchisi bu qismga Abulmajid Sanoiyning "Haqiqat ul-haqoyiq", Mahmud Shabustariyning "Gulshani roz", Jomiyning "Sharhi ruboiyot", Bedilning "Muhiti aʼzam", Sayyid Qosimiyning "Haqiqatnoma", Soʻfi Olloyorning "Sabot ul-ojizin", Bobojon Sanoiyning "Kanz ul-maorif" asarlarini sanab oʻtadi. Ikkinchi turdagi adabiyotda tasavvuf gʻoyalari kechinma va hayajonlar, timsol va tamsillar orqali tasvirlanadi, talqin qilinadi. Abulmajid Sanoiyning "Sayr ul-ibod", Farididdin Attorning "Ilohiynoma", "Bulbulnoma", "Ushturnoma", Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi maʼnaviy", Xusrav Dehlaviyning "Matlaʼ ul-anvor", Navoiyning "Hayrat ul-abror" va "Lison ut-tayr" asarlari kiradi.

Tasavvufning badiiy adabiyotdagi ifodasini tahlil va talqin qilar ekan, tasavvuf insonni komillikka daʼvat etar ekan, bu gʻoyani badiiy aks ettirgan adabiyotning oʻzi komillik belgisi, komil soʻz, komil maʼno va komil tafakkur ifodasi ekanligini taʼkidlaydi. Bularni egallagan inson komil xilqat boʻla oladi, deydi. "Komil xilqat boʻlgan inson barcha narsada takomilni, yetuk muntazamlilik va muayyanlikni koʻrmoqchi boʻladi. Uning oliy orzusi - olamni ham, oʻzini ham nuqsonlardan xoli holda tasavvur etish, insonni nuqsonlardan xalos etishdir. Inson ruhi komillikka tashna, sanʼat va adabiyot esa shu chanqoqni qondirishga xizmat qilib kelgan. Inson ruhining moʻjiza mavjlarini,

¹ Komilov Najmiddin, Tasavvuf, Komil inson axloqi, birinchi kitob, Toshkent, "Movarounnahr"- "Oʻzbekiston" NMIU, 2009 y. B.145.

farah va xurramligini ifodalagan. Inson ruhi san'atdan oziqlanib yayraydi va barcha qudratini san'atda ko'rsata oladi"¹.

“Timsollar timsoli” bobida olim Navoiy ijodida tasavvufiy g'oyalar va tushunchalarning badiiy ifodasiga murojaat qiladi. Shoir asarlarida uchraydigan may, qadah, sog'ar, mayxona, xarobot, soqiy, xum, mahbub singari kinoya-timsollar va ramziy so'zlar va ular ortida yashiringan ma'nolar asrorini ochib beradi. Navoiydan quyidagi g'azal keltirilgan:

*Kamand uchiga yetkurmas g'amu andesha ayyori,
Biyik chekmish magar mayxona tomin sun' me'mori.*

*Xumorim za'fida kahtil isi to yetti mast o'ldum,
Suvalmishdur magar may loyidin mayxona devori.*

*To'la kub og'zi may, xurshidedur, go'yo teng ochilmish,
Chekarda bu ikki xurshid davrin sun' pargori.*

*May ichmish xonaqoh shayxi, xarobot ahli aysh aylang,
Ki chiqmish bahya urg'on xirqasidin mablag'i kori.*

*Ko'ringan mosivo budi emas, balki namudidur,
May ustida hubobu mavj shaklining namudori.*

*Hubobu mavj may tahraxidin zohirdurur, lekin
Sukun topg'on vujudi, maydin o'zga qaydadur bori?*

*Quyosh aksimudur hayvon suyida, yo ko'rinnishdur,
Ravonoso may ichra soqii gulchehra ruxsori.*

¹Komilov Najmiddin, Tasavvuf, Komil inson axloqi, birinchi kitob, Toshkent, “Movarounnahr”-“O'zbekiston” NMIU, 2009 y. B.148.

*Fano dayrin ko'ngul istarki, bir-bir piri dayr elg'a,
Tutarda boda, shoyad, jur'aye sungay bizning sori.*

*Navoiydin fano chun hosil o'ldi, qilg'asin ey ishq,
Navoiy rishtai jonin mug'anniy udining tori¹.*

G'azalda keltirilgan may, mayxona, soqiy, boda, xarobot so'zlarining qanday timsollarni anglatishi, bu so'zlarning asl ma'nolari tahlil va talqin qilinadi. Darhaqiqat, Navoiy hech qachon mastlikni, sarxushlikni targ'ib etmagan. U o'z asarlarida badmastlarni, ayshu ishratga berilganlarni ayovsiz tanqid qilgan. G'azalda ilohiy ishq ulug'langan. Inson komillikka intilar ekan, uning qalbida, vujudida Olloh visoliga yetishish ishq mavj uradi. May, mayxona shoir badiiy-estetik maqsadini ifodalashning bir vositasi hisoblanadi. Yor visoli Ollohning jamolidir. Ollohga chin oshiqlik uni o'zligini unutishga undaydi, fikru xayoli ana shu yuksak maqsadga erishish orzusi bilan band bo'ladi. Shuning uchun u foniy dunyoning barcha lazzatlaridan voz kechadi, Ollohga bo'lgan sadoqati, uning yagonaligiga imon keltirish oshiq qalbini g'uborlardan, nuqsonlardan poklab boradi. Bu ilohiy ishq lazzati. Unga oshiq musharraf bo'la oladimi? Oshiq qalbidan chiqayotgan un shuning uchun mungli, dardli, hazin, ammo umidbaxshdir. Umidvorlik shu qadarki, ishq lirik qahramon jon iplarini ud asbobining torlaridan qilmog'ini istaydi.

N.Komilov g'azalni tahlil etar ekan, undagi har bir so'zning tagma'nosini izohlaydi, bu so'zlar tasavvufda qanday mohiyatga ega ekanligiga diqqatni qaratadi. Birinchi baytda keltirilgan *kamand* so'zining ma'nosiga to'xtalar ekan, uning ma'nosi an'anaga ko'ra yor sochini ifodalashini, ammo bu g'azalda u o'z ma'nosi, ya'ni arqon ma'nosida kelganligini ta'kidlaydi. *Sun' me'mori* Xudoni anglatadi. *Azal me'mori* - mayxonani Xudo qurgan va uning tomini shu qadar baland qilganki, unga fikru tashvish arqoni uning kungarasiga ham yetmaydi, deydi Navoiy. Ikkinchi baytdagi *za'fi xumor* - kayfning tarqala boshlashi,

¹ O'sha asar, B.150.

kahtil—somonli loy, *may loyi* - sharob quyqumi, *mayxona devori* - piri komilning muhiti, ikkinchidan, bizni o‘rab turgan tashqi olam, dunyo. Uchinchi baytdagi kub, xurshid, pargor so‘zlari anglatgan ma‘nolar izohi baytning mazmunini o‘zlashtirib olishda muhim. Kub deganda may to‘la xum tushunilishini aytadi. Xurshid quyosh degani. Pargor esa doira chizadigan asbob. Baytda may bilan to‘lg‘azilgan xum xuddi quyoshga o‘xshaydi, xum bilan quyoshning tarixi bir xilda chizilgan degan fikr anglashiladi. To‘rtinchi baytdagi *xonaqoh* - so‘fiylar to‘planib vajdu samo bilan shug‘ullanadigan joy, *xarobot* - vayrona ma‘nosini anglatga ham g‘azalda qanoat, faqr yo‘liga kirish, inson vujudining xarobotga aylanishi bilan uning xokisorlik, kamtarinlik rutbasiga erishishi ko‘zda tutiladi. *Xirqa* - so‘fiylar kiyadigan yirtiq janda kiyim, *mablag‘i kori* - ishning natijasi, ahvoli, *bahya* -yamoq ma‘nolarini bildirishi izohlab beriladi. Beshinchi va oltinchi baytlar tahlilidan *mosivo*-g‘ayr, o‘zga, *bud* - asos, haqiqiy mavjudlik, *namud*—ko‘rinish, *hubob* - suv va boshqa suyuqliklar yuzasida paydo bo‘ladigan pufak, *tahrik* -harakat, *sukun* - turg‘unlik ma‘nolarida kelganligini bilib olamiz. Yettinchi baytdagi *hayvon suyi* deb tasavvufda afsonaviy yer osti mamlakati chashmasining suvi tushuniladi. *Soqiy* g‘azalda ramziy ma‘noda kelib, ma‘rifat bulog‘i degani. Kuy, ohang, musiqa kabi ma‘nolarni anglatadigan *navo* so‘zi g‘azalda yana ham keng ma‘noda, umumjahoniy olamning yaxlitligini ifodalovchi go‘zallikni anglatadi. *Mug‘anniy* - cholg‘uchi degani. Shunday qilib, g‘azalda she‘rxon tushunishi qiyin bo‘lgan so‘zlarning ma‘nolari bir-bir tahlil etib beriladi. So‘zning asl ma‘nosi va g‘azalda badiiy-estetik maqsaddan kelib chiqqan holda tasavvufiy g‘oyalarni ifodalashga xizmat qilgan ma‘nolarini bilish g‘azal baytlari mazmunini anglab yetishga, undan ma‘naviy-ruhiy lazzat olishga yordam beradi.

Butun ijodi tasavvufdan ilhom, kuch-qudrat olgan Navoiy asarlari insonni komillikka chorlaydi, qalb pokizaligi, e‘tiqod mustahkamligini ulug‘laydi, xudbinlik, manfaatparastlik, zulm va zo‘ravonlik, aysh-ishratiga berilishni qattiq qoralaydi. Tasavvuf ta‘limoti ilgari surgan insonparvar g‘oyalar mohiyatini anglab yetishda Navoiy asarlarining o‘rni va ahamiyati nihoyatda katta. Ammo

Navoiyni o‘qish va uqish uchun she’rxon, umuman, adabiyot shaydosi tasavvufni ham bilishi talab etiladi. Tasavvufni bilmay, o‘rganmay turib, Navoiy asarlarining asl mohiyatini ham anglab yetish qiyin. Navoiy nima uchun o‘zining ezgu g‘oyalarini badiiy ifodalash uchun tasavvufga tayandi, uni badiiy tafakkurning qudratli quroli deb bildi? Davrimizning tasavvuf allomasi N.Komilov bunga shunday izoh beradi:

“...tasavvuf Navoiyga jaholatdan qutilish, dunyoni bilishga, chanqoq yurakni ma’lum darajada tinchitishga ko‘mak bergan. Buning ikki sababi bor: birinchisi shuki, Navoiy yashagan zamonning aqliy taraqqiyot darajasi, fan rivoji real dunyo voqealarini ilmiy asosda tushuntirishga ojizlik qilardi. Ikkinchisi esa, bu yanada muhimroq: insonning aqliy imkoniyatlari, donoligi bilan axloqi, a’mol-niyati orasida mavjud bo‘lib kelayotgan nomuvofiqlikdir. Navoiy aqlu zakovati hayratlanarli, qilni qirq yoruvchi kishilar ichida nafs domiga tushgan, zulm va badkirdorligi bilan mashhur bo‘lganlarini ko‘p ko‘rgan edi. Shuning uchun ulug‘ gumanist shoir axloqni - fazilatlar tarbiyasini birinchi o‘ringa qo‘yadikim, bu ham tasavvufona murojaat qilishga olib kelardi. Zero, tasavvuf butun e’tiborni aynan inson axloqini poklashga qaratib, shu maqsadda turli yo‘l-yo‘riqlar, amaliy tadbirlar ishlab chiqqan edi. Tasavvuf insonni vijdoni bilan yuzma-yuz qo‘yib, o‘zi haqida o‘ylashga majbur etar, haqiqat va e’tiqod pokligi ruhida tarbiyalardi”¹.

Olim yana bir muhim fikrni olg‘a suradi. Navoiy ishq ilohiyni ulug‘lash bilan birga ishq majozini ham inkor etmaganligini ta’kidlaydi. Sof tasavvufiy ruhdagi ishq haqiqiy tarannum etgan asarlar uning ijodida asosiy o‘rinni egallamaydi. Ammo iboralarninig timsoliyligi, ramziy ma’nolarda qo‘llanishi ishq majoziy ruhdagi asarlarda ham uchraydi. Bunda ham ishq poklanish yo‘li, vositasi sifatida ulug‘lanadi. Insonning insonga muhabbati tiriklik dunyosini sevish, moddiy olamning ne’matlaridan bahramand bo‘lish, uning go‘zalligini his etishga da’vatdir. Bu a’mollarga suyangan, ixlos qilgan, unga erishishga

¹Komilov Najmiddin, Tasavvuf, Komil inson axloqi, birinchi kitob, Toshkent, “Movarounnahr”-“O‘zbekiston” NMIU, 2009 y. B.158-159.

harakat qilgan odam ma'naviy-axloqiy jihatdan yuksalib boradi va oxir-oqibat ishqi majoziy ishqi ilohiy darajasiga ko'tariladi. Shunday ekan, ishqi majoziy ishqi ilohiyga yetishishning muhim bir bosqichi hisoblanadi.

Navoiyning "Kelmadi" radifli g'azalini ana shunday tushunish, tahlil etish lozim. G'azal oxirida "...boda birlan xurram et ko'ngul uyin, Ne uchunkim boda kirgan uyga qayg'u kelmadi" degan misralar mazmunini yorini kutaverib, bor umididan ayrilgan oshiq uyga kirib rosa may ichishi kerak ekan, qabilida mushohada etish nihoyatda kulgilidir. Bu yerda "ko'ngil uyini xurram etuvchi" narsa yorni ko'ngilda saqlash, uning yodi bilan yashash zarurligi nazarda tutilgan.

Bundan ko'rinadiki, olim Navoiy ijodida tasavvufiy talqinlarning ahamiyatini chuqur tahlil etish bilan birga, buyuk mutafakkir shoir ijodini o'rganishda kitobxon e'tibor qaratishi lozim bo'lgan qirralariga ham keng to'xtalib o'tadi va Navoiy ijodini o'rganish, asarlari mazmun-mohiyatini to'la idrok etishga yordam beradigan bilimlar bilan qurollantiradi.

Navoiyning tasavvufiy qarashlari "Lison ut-tayr" asarida ham yorqin ifodasini topgan. Ushbu asarning "Faqr u fano vodiysining adosi" bobida bir hikoyat keltiriladi. Unda parvonalar bir kecha yig'ilishib, shamning mohiyatini bilishga qiziqadilar. Ulardan biri shamga yaqinlashadi, uning munavvar nurini ko'rib qaytib ketadi va buni boshqalarga hikoya qilmoqchi bo'ladi. Ammo parvonalar uning so'zidan hech nimani anglamaydilar. Yana bir necha parvonalar kelishib, shamning atrofida aylanadilar va kelib ko'rganlarini so'zlab berishadi. Biroq maqsadlari amalga oshmaydi. Har bir parvona sham nuridan lazzatlanadi, orom oladi, ammo uni sharhlab berolmaydi, chunki kishi to'kuymasa, olov haroratini anglamaydi. Navoiy bundan ikkita xulosa yasaydi:: birinchisi - Haq nuriga g'arq bo'lib, uning jamoli haroratida kuymaguncha Haq visoliga yeta olmaydi. Ikkinchisi - Haqqa yetgan odam bu sirni sharhlab berolmaydi. Bu ham ishq qudratining bir sehri.

Tasavvuf ishqni ulug'laydi. Haqiqiy oshiq ishqi ilohiyga erishadi. Ammo majoziy ishqni ham unutmaslik kerak. Tasavvufda bu ilohiy ishqning bir

bosqichi sifatida sharhlanadi. Badiiy adabiyotda ham bu o‘z aksini topgan. Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida Shayx Ro‘zbehon Baqliy haqida bir hikoyat keltiradi. Shayx Makkada yashaydi va kunlardan bir kun bir mug’anniya(xonanda ayol)ni ko‘rib, unga oshiq bo‘lib qoladi. Bu holni boshqalarga oshkor etmaydi va yashirin ravishda oh-nola chekadi. Lekin bunday holda uzoq vaqt yashashi mumkin emasdi. Shuning uchun u Makka mashoyixi huzuriga boradi va boshidan hirqasini yechib tashlab, “o‘z holim to‘g‘risida yolg‘onchi bo‘lishni xohlamayman”, deydi va mug’anniya qoshiga boradi. Mug’anniya ham uning muhabbatini tan oladi, uning avliyo akobirlardan ekanligini bilib, tavba qiladi va shayx xizmatiga kiradi. Shundan keyin shayxning ko‘ngli orom topadi va mashoyix huzuriga borib, hirqasini qaytarib oladi. Navoiy shayxning bunday g‘aroyib holati ko‘p bo‘lganligini ta’kidlaydi. Tasavvufshunos olim N.Komilov bu hikoyat “Lison ut-tayr”dagi Shayx San’on hikoyati bilan mazmunan o‘xshash ekanligini qiyosiy tahlil asosida ko‘rsatib beradi. “Shayx San’on ilohiyot hikmatidan xabardor orif inson, ammo u tarso qizini ko‘rgach, shaydoyu muftalo bo‘lib qoladi, ne-ne malomatlariga ko‘nib, eng past yumushlarni bajarib, va yori vaslini qozonadi va oxiri tarso qizi shayxning muhabbati sof va samimiy ekanini bilib, uning oldida tavba qiladi, islomga kirib, shayx muridiga aylanadi. Bu sarguzasht orqali Shayx San’onning ilohiyotga bo‘lgan muhabbati sinovlardan o‘tadi, bilim va mansabdan hosil bo‘lgan g‘ururni tashlab, chin oshiqqa aylanadi, komillik darajasi ortadi”¹.

Yana bir ishqning tavsifi shu asarda keltiriladi. Oshiqning Ollohga bo‘lgan muhabbatidan ortiq ishq yo‘q. So‘fiylar shuni targ‘ib etganlar. Tasavvuf ilmining allomalari haqiqiy ishqning timsollari bo‘lib namuna ko‘rsatishgan. Ularning sadoqatlari to‘g‘risida afsona va rivoyatlar ko‘plab yaratilgan. “Lison ut-tayr”da Navoiy Bahovuddin Naqshband haqida shunday hikoyatni keltiradi. Unda aytilishicha, Naqshband yo‘lda ketayotib, itning izini ko‘rib qoladi va cho‘kka tushib, itning oyog‘i izlarini o‘pib yig‘laydi. Mana sadoqat, vafo ramzi.

¹Komilov Najmiddin, Tasavvuf, Komil inson axloqi, birinchi kitob, Toshkent, “Movarounnahr”-“O‘zbekiston” NMIU, 2009 y. B.54.

So‘fiy ana shu itdan saboq olishi keak, deydi. Naqshband ana shunday Haqqa yetgan donishmandlarning biri bo‘lgan. Alisher Navoiy ana shu hikoyatni dostonida keltiradi va Naqshband tilidan shunday deydi:

Dedi: “Men ortiq ekanmu yo bu iz”,

Yonga o‘zni dedi: “ki ey insofsiz,

Ul vafo ahli ayog‘idin nishon.

Sen vafosizlik sari doman kashon”.

Xatm qildi chu bu ma‘niga so‘zin,

Yer o‘pib, ul iz uza qildi ko‘zin¹.

Navoiy Bahovuddin Naqshband va uning sulukidagi shayxlarni sudra daraxtidagi qushlarga o‘xshatadi. Bu qushlar sokin va tinch hayot kechiradilar, o‘zlarini har yoqqa urmaydilar, hech narsadan norozi bo‘lmaydilar. Qushlardagi bu sifatlarni Naqshbandga timsol qiladi. Navoiy Naqshband sulukiga katta ixlos bilan qaragan va uning talablarini, mohiyatini o‘z asarlarida aniq ifodalab bergan. Botiniy holni xalqdan yashirish, botiniy olam bilan Haq vasliga musharraf bo‘lish, ko‘ngilda irfon nurini limmo-lim saqlash, uni o‘zgalardan pinhon tutish, dilda ma‘rifatning yuz ming daryosi toshib tursa ham, sadaf kabi og‘iz ochmaslik. Chunki sadafning og‘zi berk bo‘lsa, unda dur hosil bo‘ladi. Navoiy “dam asrabon” iborasini ishlatadi va uning yana bir ma‘nosini zohir etadi. Bu ichki sirni oshkor qilmaslik, tilga ehtiyot bo‘lish demakdir.

Ko‘rinadiki, tasavvufni bunday tushunish, Naqshbandiya sulukininig mohiyatini anglash va uni asarlarida badiiy ifodalash shoir asarlarining ta‘sir kuchini oshirdi, xalqqa manzur qildi. Haqiqatan ham tasavvuf g‘oyalari xalqparvar, insonparvar ta‘limot sifatida asrlar osha kishilarning g‘amtashvishlariga sherik bo‘lib keldi, ularning har qanday muammolarining hal etilishiga yordam berdi, eng muhimi, ularni ertangi kunga umid bilan yashashga o‘rgatdi. Ertangi kun bu bugungidan baxtliroq, saodatliroq, yorug‘ va ravshan

¹ O‘sha asar, B.57.

kundir. Buning uchun inson o'zini doim taftish etib turishi, yomon illatlardan qutilishi, gunoh ishlarga qo'l urmasligi, qalbini, dilini, vujudini pok saqlashi lozim. Ana shunda u Haq visoliga yetishadi.

Majoziy ishqning taraqqiy etib, ilohiy ishq darajasiga ko'tarilishini Navoiy "Layli va Majnun" dostonida obrazlar orqali ko'rsatib beradi. Bu dostonning asosiy mohiyatini belgilab bergan. Majnunga Haq jazbasi tekkan. Layli ilohiy tajalliyot nuri porlagan "mazhar" - ilohiy jamoldir. Layli va Majnun muhabbatini tarannum etar ekan, Navoiy tasavvuf yo'lidan boradi, tasavvufda qo'llangan istilohlarga murojaat qiladi, Qur'onda aytilgan hikoyalarga ishoralar qiladi. Masalan Majnun Layli bilan uchrashgan paytdagi holati tasviri ishq otashining qudratini kitobxon ko'z o'ngida namoyon etadi:

*Andoqki qilib karashma mayli,
Zulf ichra jamolin ochsa Layli¹.*

Bu yerda Layli yuzi ilohiy nurning o'zi, uzun sochlari moddiy dunyo, firoq tuzoqlari, ana shu nur manbaining shu'lalari Majnun qalbi va vujudidan joy olgan. Yana Navoiy ishq vodiysida shoxlari shu'lalanib turgan ishq vodiysidagi daraxtni ko'radi. Layli va Majnun uchrashganda, shoir bu tashbehni takrorlab, Majnunni xuddi shu daraxt qiyofasida chizadi, Layli yuzining shu'lasidan Majnun qalbi va vujudi alanganib ketadi.

"Nori ayman"– ishq vodiysi daraxtining tasviri Qur'ondagi Muso alayhissalom bilan bog'liq hikoyaga ishoradir. Muso alayhissalom Parvardigorga yuzingni ko'rsat deb munojot qiladi. Parvardigor bunga bandam toqat qilolmaydi deydi va bir uchqunni Tur tog'iga yuboradi. Chaqmoq Tur tog'ini larzaga keltiradi va parchalanib ketadi. Ishq vodiysi yorishib ketadi va undagi daraxtlar mash'aladay porlaydi. Majnunga bu voqea go'yo qayta sodir bo'lganday tuyuladi, u Ishq vodiysi olovlarini ko'radi. Majnun chini oshiqlik sarguzashtlari mana shundan boshlanadi. Uning ishqda sobitligi, unga butun

¹ O'sha asar, B.196.

qalbi va vujudini baxshida etganligi turli sinovlardan o'tadi. U bularning barchasini yengib o'tadi, Layli visoliga yetolmaganda ham ruhini tushirmaydi, umidi so'nmaydi, u albatta visolga yetajagiga ishonadi. Bu ilohiy ishqning qudratidir.

Navoiyning tasavvufona g'azallarini sharhlash ham olim ijodida alohida o'rin egallaydi. Bu sharhlarda g'azallarda qo'llanilgan irfoniy tushunchalar, tasavvufiy istilohlarning mazmun-mohiyati ochib beriladi, Navoiyning badiiy mahorati, so'zni istifoda etishda san'atkorligi ochib beriladi. Irfoniy qarashlar va tushunchalar badiiy adabiyotga o'ziga xos ifodalangan. Bunda badiiy timsollar, ramzlar, tamsillar asosiy rol o'ynaydi. Navoiyda bu yuksak cho'qqiga ko'tarilgandir. Shoirning har bir g'azalida ilohiy ishqqa qorishib ketgan majoziy ishqning go'zal manzaralari, his-tuyg'ularni junbushga keltiradigan tashbehlarni ko'ramiz. So'zning sehr-qudrati, badiiy-tasviriy vositalarning ta'sirchanligi, jozibadorligi hayratga soladi. Tasavvufiy tushunchalarning she'rda juda katta ta'sirchan kuchga ega ekanligini namoyon etgan Navoiy she'riyati asrlar osha adabiyot shaydolarini o'ziga maftun etib kelayotganligining sababi ham shu. Shuningdek, Navoiyning shunday ruhdagi asarlarini tasavvufdan yetarli darajada bilimga ega bo'lmasdan mutolaa qilish mumkin emas. Buning uchun bizga tasavvufshunos olim N.Komilovning tadqiqotlari, ilmiy izlanishlari mahsuli bo'lgan teran mushohadalarga boy maqolalari yordam beradi.

“Jon va jonon mojarosi” maqolasida Navoiyning yetti baytlik bir g'azali tahlil etilgan. G'azal

Har labing o'lganni tirguzmakda jono, jon erur,

Bu jihatdin bir-birisi birla jonajon erur,

matlai bilan boshlanadi. G'azalda jon va jonon so'zlari 36 marta ishlatilgan. O'n to'rt misra she'rda bu juda ko'p emasmi? Badiiy adabiyotda takror qoralanadi, takror so'z, takror fikr va iboralar asarning badiiy darajasini pasaytiradi. Ammo takrorning takrordan farqi bor. Uni shunday qo'llash kerakki, natijada takror ekanligi sezilmasin, har bir qo'llanishda u yangi ma'no ifodalasin, badiiy-estetik g'oyani ochib berishga xizmat qilsin. Mumtoz adabiyotimizda takrorga

ko'p bor murojaat qilinadi va uni san'at darajasiga ko'targanlar. Ana shu xususiyatni aynan Navoiyning yuqorida tilga olingan g'azalida ko'ramiz. N.Komilov g'azalda qo'llangan jon va jonon so'zlarining asl ma'nolari haqida keng to'xtaladi. Jonon so'zining qanday kelib chiqqani, uning jon so'zi bilan qay darajada aloqadorligi, bu so'zlarning ma'nodosh shakllari, unga mazmun-mohiyat bag'ishlagan rivoyat, afsona va hikoyatlarning badiiy asarlardagi ifodasi haqidagi mulohazalar, ilmiy dalillar zavq-shavq bilan o'qiladi. Bu ma'lumotlardan xabardor bo'lgan she'rxon g'azalni ishtiyoq bilan o'qiydi, undan lazzatlanadi, jon va jonon so'zlarining qayta-qayta qo'llangani nuqson bo'lib emas, g'azalning fazilati, shoir mahoratining ko'zgusi bo'lib gavdalanadi.

“Erur ko'ngilda safo ishq toza dog'i bila” g'azali tahlilida ham olimning zukko nigohini, tahlilda nozik nuqtadonligini his etamiz. Aslida bu g'azal Navoiyda kamdan-kam uchraydigan taxallussiz g'azallardan biri. “G'aroyib ussig'ar” devonida o'nta shunday taxallussiz g'azal mavjud. Tahlilchi g'azalda maqta bo'lmagani sababli mantiqiy tugallanmay qolganligini ta'kidlaydi. Bu g'azal shoirning ilk devoni bo'lmish “Badoye' ul-bidoya”da ham bo'lib, uning shoir yoshlik yillarida yozganligini ko'rsatadi. G'azalda ilohiy ishq kuylanadi. Uni shoir majoziy tashbehlar-istioralar, an'anavaiy obrazlar, goho tasavvufiy istilohlar -timsollar vositasida bayon etadi. Munaqqid ishq ilohiyni tarannum etgan irfoniy-ma'rifiy g'azallar Navoiy devonlarining asosiy qismini tashkil etishini qayd etadi va ularni to'rt guruhga ajratib ko'rsatadi. Bular: 1) munojot g'azallar; 2) Xudo va Payg'ambar madhiga bag'ishlangan na't-hamd g'azallar; 3)oshiqning ahvolini tasvirlovchi “sharhi hol” g'azallar; 4) falsafiy fikrlarni ifodalovchi g'azallar.

G'azalning tahliliga murojaat etaylik. “Yerru ko'ngilda safo ishq toza dog'i bila, Nechukki ko'zda yorug'lik erur qarog'i bila” baytining mazmuni qisqacha shunday berilgan: “Ishqning dog'i - dardu alami, asorati, tamg'ayarasi tozarishidan ko'ngilda shodlik, surur va ravshanlik paydo bo'ldi. Zotan,

bunga ajablanmaslik kerak, chunki ko‘zning ravshanliging qorachig‘idan”¹. Ammo tahlilchi bu bilan kifoyalanib qolmaydi. Shu ma‘noni keltirib chiqargan baytda istifoda etilgan so‘zlarning har biri ma‘nosiga izoh beradi, ularning irfoniy-ma‘rifiy ahamiyatiga to‘xtaladi. “Dog’ ” va “safo” so‘zlari anglatgan ma‘nolarga e‘tiborni qaratadi. Bu so‘zlarning g‘azalda ma‘lum estetik vazifa, ma‘no yukiga ega ekanligini isbotlab beradi. Dog’– tamg‘a, nishon; dog’- anduh, g‘am, dog’-jarohat, yara; dog’-yurakdagi qora nuqta, suvaydo; dog’- lolanig qora rangi; dog’- qullik belgisi. Safoning ham shu kabi ma‘nolari mavjud. “Mirhot ul-ushshoq”asarida ta‘riflanganidek safo “riyozat chekishdan ko‘ngilning poklanishi” degan ta‘riflar keltiriladi. “Shunday qilib, ishq dog‘i ag‘yor domi, dunyo qudrati qulligidan ko‘ngilni ozod etadi. Ilohni sevish, unga qul bo‘lish qullikdan ozod bo‘lishning chin yo‘li, demak, bunday qullikdan xursand bo‘lish kerak. Shuning uchun ham oshiq mahubasining tamg‘asini ko‘ngilda asrab, unga qul bo‘lishdan boshi osmonda”².

G‘azalning oltinchi bayti tahlili yana ham maroqli hikoya qilinadi. Shuni ta‘kidlash joizki, atoqli olim Navoiy asarlari tahlilida ishq majoziyning ishq ilohiy tasviriga ko‘chishida shoirning san‘atkorlik mahoratiga alohida urg‘u beradi. Tasavvufni bilmaganlar g‘azallarning tashqi ma‘nolariga e‘tibor berishadi va undagi tagma‘no-tasavvufiy tushunchalar va irfoniy-ma‘rifiy talqinlar mohiyatini anglamaydilar. Bu esa Navoiy asarlaridan olish mumkin bo‘lgan ma‘naviy-ruhiy taassurot darajasini pasaytiradi, asar haqida xato va noto‘g‘ri xulosalar yasashiga sabab bo‘ladi. Vaholanki Navoiyda har bir majoziy ishq tarannumi bevosita ilohi ishq bilan bog‘lanadi va uning qudratini namoyon etadi. Oddiy tuyulgan, dunyoviy ishq tashvishlaridan oshiqning nola chekayotganidek tuyulgan holatlar aslida ilohiy ishq shoirga baxsh etgan jo‘shqin va qaynoq ilhomning hosilasidir. Bu esa shoir asarlarini teran anglab yetish uchun tasavvufdan xabardor bo‘lishni, undagi timsollar va tamsillar anglatgan ma‘no-mazmunni bilishi, ularni talqin eta olishi talab etiladi. Busiz

¹Komilov Najmiddin, Tasavvuf, Komil inson axloqi, birinchi kitob, Toshkent, “Movarounnahr”-“O‘zbekiston” NMIU, 2009 y. B.221.

²O‘sha asar, B.222.

Navoiy ijodining ma'rifiy ahamiyatini, badiiy sehrini his etib bo'lmaydi. N.Komilov tahlillarida ana shunga e'tibor qaratilgani, har bir g'azalni uning badiiy jilolarini ko'rsatib berish bilan birga tasavvufiy tushunchalar qay darajada ifodalanganligini sharhlab berishi uning adabiyotshunoslik oldidagi katta xizmatlaridan biridir.

Xumor aro tiladim soqiyu qadah, yuz shukr,
Ki ulkimen tiladim keldi o'z ayog'i bila.

Mast bo'lgan oshiq soqiydan yana qadah so'raydi, uning bu tilagi darrov ijobat bo'ldi, u o'z ayog'i bilan uning yoniga keldi.

Ammo xumor, soqiy, qadah, ayog' so'zlarining ishlatilishi bejiz emas. Oshiq holatining tasviri faqat uning mast bo'lganligiga, yana qadah berishganida baxtiyorligining izhori emas. Tasavvufdagi ishq mohiyatidan kelib chiqqan holda tahlil etilganda butunlay boshqacha manzara hosil bo'ladi va bunda baytning she'rxonga ta'siri yuz chandon ortadi. Bunda shunday ma'nolar kelib chiqadi:

“Xumor” mastlik asorati, ammo u vaqtinchalik sovish, solikning ikkilanishi, baqaror holatini ifodalaydi, “mahbubning izzat pardasi ichiga yashirinishi, dunyo pardasi vahdat yuzini berkitishini” anglatadi. Shunday holatda shoir tarqalgan, sovigan kayfiyatni rostlash uchun soqiy(piri murshid) qo'lidan qadah(ma'rifat) tilaydi va Alloh unga tilaganini yetkazganidan - pir huzuriga yetganidan shukronalar aytadi. Yana baytda qo'llangan ayog' so'zi ham ikki xil ma'no anglatadi. Birinchisi odamning a'zosi, ikkinchisi qadah ma'nosi. Bu yerda tajnis orqali so'z o'yini yasalgan: “keldi o'z ayog'i bilan keldi o'z qadahi bila”.

O'zbek adabiyoti tasavvuf ta'limotidan oziqlanib keldi va bugungi kunda ham bu oziqlanish davom etmoqda. Tasavvufni tushunish va unga amal qilishda buyuk bobokalon shoirimiz, mutafakkir Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati namuna bo'lib qolaveradi. Ulug' so'z san'atkori asarlarida o'z badiiy ifodasini topgan tasavvufiy tushunchalar, irfoniy-ma'rifiy timsollar va tamsillar yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularni komillik sari boshlashda muhim

tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. Umuman, tasavvufning adabiyotga ta'siri jahoniy miqyosga, jahoniy mohiyatga ega. O'z vaqtida Gyote tasavvufning inson kamolotidagi muhim o'rnini qayd etgan edi. Bugungi kunda dunyo miqyosida tasavvuf ta'limotiga qiziqish, uni o'rganish, o'lmas insonparvarlik g'oyalarini badiiy asarlarda aks ettirish, talqin etish yanada kuchayib bormoqda. Ingliz, nemis, fransuz, ispan adabiyotida, Lotin Amerikasi mamlakatlarida yashab, ijod qilayotgan adib va shoirlar XX asr fojealarini chuqur badiiy tahlil etib, tasavvuf insoniyatnig bugungi kundagiday ma'naviy tanazzulga uchrashini ming yillar ilgari tasavvuf ta'limotida bayon etib berilganligini tan olib, tasavvufiy g'oyalarni baralla kuylashga intilmoqdalar. Bekket, Borxes, Oruell, German Gesse, Kortasar va boshqa ko'plab g'arb shoir va yozuvchilarini bunga misol qilib keltirish mumkin.

O'zbek adabiyotida tasavvuf g'oyalaridan oziqlanish, ulardan yuksak insoniy ideallarni badiiy aks ettirishda foydalanishdan katta va boy adabiy tajriba mavjud. Birgina Navoiy ijodi shoir va yozuvchilarimizga ulkan tajriba maktabi vazifasini o'tab kelmoqda. Shu o'rinda tasavvuf g'oyalarininig badiiy aks etishida ularning o'rni va ahamiyatini belgilashda, adabiy jarayon tamoyillariga baho berishda adabiyotshunoslik ilmining katta hissasini alohida qayd etish joiz. Ayniqsa, professor N.Komilovning tasavvuf va uning ijtimoiy-siyosiy faoliyatga ta'siri, ilmiy-badiiy tafakkur taraqqiyotidagi o'rinni tadqiq etishga bag'ishlangan fundamental asarlari, ilmiy izlanishlari, amaliy faoliyati beqiyos ahamiyatga ega. Olim asarlari yordamida biz Navoiyni teran anglashga imkon beradigan bilim bilan qurollanamiz, mutafakkir shoirimizni yangidan kashf etamiz, butun adabiyotimiz tarixi tasavvufdan kuch, ilhom olib taraqqiy etganligini anglab yetamiz. Zero, adabiyotning bosh vazifasi insonni tarbiyalash ekan, u bu vazifani tasavvuf ta'limoti g'oyalariga tayangan holda bajarganda bu adabiyotning tarbiyaviy kuchi shunchalik yuqori darajada bo'lishi asrlar osha o'z isbotini topib kelmoqda.

Sobiq sho'ro davrida din – af'yun, tasavvuf – reaksion mistik oqim, deb unga qora tamg'a bosilgan edi. Bundan ko'zlangan pinhona maqsad – jamiyatda

komil insonni emas, soxta, yolgʻon gʻoyalarga eʼtiqod qoʻygan avlodni shakllantirish, uning ustiga itoatkor tizimni qurish va odamlarni boshqarish boʻlgandi. Afsuski, sobiq shoʻro davrida yashagan olimlar, jumladan Ye.E.Bertels ham Navoiy “Xamsa”si dostonlaridagi ilohiy muhabbat gʻoyasini inkor etadi. Olim ilohiy muhabbat bilan insoniy muhabbatni bir-biriga zid qoʻyib, shoir koʻproq ikkinchisini kuylagan, degan xato fikrni bildiradi. Rus olimi Ye. Bertelsdan farqli oʻlaroq, Najmiddin Komilovning Sharq adabiyoti yirik namoyandalari ijodiga doir ilmiy talqinlarida boshqacha yondashuvlarga duch kelamiz. Birgina Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni sharhini koʻrib chiqaylik. Ruhi Mutlaq oshiq va maʼshuqa taniga kiradi, shunda Ruhlar oʻzaro tutashadi, deydi muallif. Ammo tong yorishganda, sevishtanlar el nazaridan qoʻrqib, yana ajralishadi, negaki hali Ruhi Mutlaqqa yaqinlashuv bir-biriga singish va erib ketish degani emas... Layli oʻz egasi qoshiga kelgach, oʻlimni quvonch bilan qarshi oladi, sababi maʼshuqasi – Iloh vasliga axiyri yetishdi. U foni dunyoning kayf-safosi, lazzatlaridan qutulib, abadiy farogʻatga yetishgani tufayli baxtlidir. Laylining Iloh vasliga yetishganini bilgan Majnun yoʻlga tadorik koʻradi. Ikkovi ham visol oni yaqinlashgani, sevgilisi (Iloh) bilan mangu qovushish imkoni yetib kelganidan xursand.

Soʻfiy shoirning xulosasiga koʻra, har bir odam oshiqlik yoʻlini tutib, ishq tariqiga kirib, oʻzini oʻlimga emas, balki vasl mayini ichishga tayyorlab bormogʻi darkor. Albatta, inson aqli va farosati Ilohni tasavvur etishga ojizligini bilgan Navoiy uni Layli timsolida bergan va maqsadiga erishgan! U gʻoyasini badiiy mahorat bilan obrazga singdira olganki, hatto ilohiy maʼshuqa bilan dunyoviy maʼshuqa oʻrtasidagi farqni sezmay qolasiz.

Najmiddin Komilovning ilmiy talqinlaridan eng mashhuri shoh va darveshga bagʻishlangan, desak xato boʻlmaydi. Soʻfiy sheʼriyatida darveshlar zohiran aftodahol, janda kiyimda (hirqada) koʻrinsa-da, lekin botinan ilm-maʼrifatli, hozirjavob va mard-hamiyatli kishilardir. Tasavvuf ahli nazdida shoh – qul, dunyo qulidir. “Chunki u mol-dunyoga hirs qoʻygan odamlarning eng “peshqadami”, eng zoʻri, uning fikri-yodi dunyoni egallash bilan band, – deb

yozadi N. Komilov. – Shunday qilib, shoh dunyodan to‘ymaslik, zulmu zo‘ravonlik ramzi bo‘lsa, darvesh o‘z xususiyati bilan shohning butunlay teskarisi – saltanat, taxtu tojni inkor etish, unga nafrat timsolidir”¹. Shularni tahlil qilarkan, xalqqa rahbar bo‘lish uchun boshni ilohiyot nuri va ma‘rifat dunyosi bilan bezash lozim, degan xulosaga keladi muallif.

Najmiddin Komilov hokimiyat, toj-u taxt imkoniyati bilan ma‘rifat-u bilimning darajasini qiyoslab, mansabga xos ijobiy va salbiy qusurlarni sanab o‘tayotib, insondagi hokimiyatga hirs, dunyoparastlikni ochiq tanqid qiladi. “Har qanday podsho yaxshilarni himoyasiga olib, olimlardan doimo maslahat so‘rab, yomonlarni jilovlashi va jazolashi lozim”, deydi. Shu ma‘noda Farididdin Attorning “Tazkiratul-avliyo”, Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns”, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”, Sa‘diy Sheroziyning “Guliston”, “Bo‘ston” asarlaridan pokdil darveshlarning hayot yo‘lini, nozik xislatlarini keltirib o‘tadi.

Professor N. Komilovning “Saddi Iskandariy” dostoniga oid ilmiy tadqiqoti ham o‘rganishga loyiq hodisa. Olimning ta‘kidicha, shoirning bu asarida ota va bola, shoh va raiyat, shoh va a‘yonlar, shoh va darvesh, ustoz va shogird, donishmandlik va amaliyot, taqdir va tadbir, inson va Xudo kabi axloqiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy masalaga oid fikrlari davlat boshqaruvida qo‘l kelishi mumkin. Jumladan, Iskandar taqdirida jahongirlik yozilganini aytib, u bu maqomga faqat chuqur bilimi, ma‘naviy-axloqiy kamoloti tufayli erishganligini ta‘kidlaydi. Asarning foydali jihati shundaki, inson komillikka yetib, yuqori martaba-yu, maqomga erishganida manmanlikka berilmasligi, shon-shavkatga erishganida ham Xudo oldida o‘zini ojiz his etmog‘i darkor.

Dostondagi murakkab nuqtalarni tahlil qilgan muallif: “Shohlik uning uchun zo‘rlik va hukmronlik vositasi, mumtozlik belgisi emas, balki xalq va Haq oldidagi vazifa, burch edi”, degan xulosaga keladi.

¹ Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. Toshkent, “Yozuvchi” nashriyoti. 118-bet.

Prof. Najmiddin Komilov “Tasavvuf”, “Xizr chashmasi” kitoblarida tasavvufning mohiyatini ilmiy tadqiq qilib, bir vaqtlar chetga surib qo‘yilgan, man etilgan, o‘tmish bilan bugun o‘rtasida buzib tashlangan ko‘prikni tiklab ketdilar. Islom dini, naqshbandiylik tariqati va yo‘llaridan, falsafa, mantiq va badiiy adabiyotdan yaxshi xabardor olim xalqimizga Iloh, shoh, darvesh, nafs, ma’rifat, qanoat, saxovat ma’nolarini anglatib, hayotda zohiriy (tashqi) amallarga, o‘tkinchi hoyu-havaslarga, nopok xatti-harakatlarga aslo ko‘ngil bog‘lamaslikka undadilar.

2.2. Navoiy asarlarida tasavvufiy qarashlar va uning o‘rganilishi

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy ijodiyoti necha asrlardan beri jahon adabiyotining eng nodir sahifalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Shoirning go‘zal va jozibador lirikasi, chuqur falsafiy mazmun bilan sug‘orilgan epik poeziyasi ko‘plab ilmiy izlanishlarga asos bo‘lgan. Ayniqsa, «Xamsa» tarkibidagi dostonlar ko‘plab navoiyshunoslar e’tiborini jalb qilib kelgan. Mazkur dostonlarni Islom dini, «Qur’on», ayniqsa, tasavvuf falsafasisiz talqin etib bo‘lmaydi. Bu borada navoiyshunos olimlarimizdan Najmiddin Komilovning xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim. Olimning mustaqillik arafasida va istiqloqlarning dastlabki yillarida yaratgan ilmiy maqolalari «Xamsa» dostonlarini o‘rganishda yangi bosqichni boshlab berdi. N.Komilovning «Timsollar timsoli»¹ «Tasavvuf va badiiy ijod»², «Ishq otashining samandari»³, «Suqrot-komil inson timsoli»⁴, «Tavhid asrori»⁵ kabi maqolalari Navoiy asarlarini diniy-tasavvufiy va yangi davr nuqtayi nazaridan o‘rganish yo‘lidagi ilk qadamlardir. Olimning bu maqolalari Navoiyning «Xamsa» dostonlarini tadqiq etishda ham alohida ahamiyatga ega.

¹ Komilov N. Timsollar timsoli. Yoshlik. 1987 yil. 7-son.

² Komilov N. Tasavvuf va badiiy ijod. Yoshlik. 1991. 8-son.

³ Komilov N, Ergashev B. Ishq otashining samandari. SHarq yulduzi. 1991. 11-son.

⁴ Komilov N. Suqrot-komil inson timsoli. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1991. №39.

⁵ Komilov N. Tavhid asrori. Sirli olam. 1993. 8-son.

Botiniy ma'no-mohiyatiga ko'ra bir xil falsafiy-tasavvufiy qarashlar silsilasiga borib taqaladigan o'zaro aloqador asarlar bo'lgan «Xamsa» tarkibidagi dostonlar ichida «Layli va Majnun» dostoni Navoiy dunyoqarashini yaqqol namoyon etadigan obidadir.

Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan Layli va Majnun haqidagi afsona bu dostonga asos qilib olingan. Lekin Navoiyning maqsadi afsona so'zlash emas. Shunga ishora qilib, shoir dostonning xotimasida shunday deydi:

*Yozmoqta bu ishq jovidona,
Maqsudim emas edi fasona.*

*Mazmunig'a bo'ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli.*

*Lekin chu raqamg'a keldi mazmun,
Afsona anga libosi mavzun¹.*

Ya'ni bu abadiy ishqni kuylashdan maqsad afsona so'zlash emas, balki uning mazmuniga ruh moyil bo'ldi, lekin afsona bunga bir sabab, bahona bo'ldi. Dostonda teran bir mazmun yotadi, afsona bu mazmun uchun libosdir.

Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida ishqni uch turkumga ajratadi: nafsoniy ishq (avom ishq), majoziy ishq (xos kishilar ishq), ilohiy ishq (avliyolar ishq). «Layli va Majnun» dostonining mohiyatini majoziy ishqning taraqqiy etib, haqiqiy–ilohiy ishqqa aylanishi tashkil etadi. Bu esa tasavvuf falsafasining markaziy masalalaridan biridir. Majnun bu ishqning ikkisidan ham bahramand bo'lgan oshiqdir:

*Majnung'a biri bo'lub musallam,
Bahra topti ikkinchidin ham.*

*Ermas erdi o'zidin bu ishlar,
Bal ishqdin erdi bu kashishlar².*

¹ Alisher Navoiy. «Layli va Majnun». Toshkent. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1990. 250-bet.

² O'sha asar. 237-bet.

Ya'ni bu ishlar Majnunning o'zidan bo'lmay, balki ishq uni o'ziga jalb qilgan edi. Yo'qsa u go'dakligidayoq yonog'ida muhabbat olovi tovlanarmidi? U tug'ilishi bilanoq ko'kdagi abadiy dard xursandchilik nag'masini chalarmidi? Yuzlarcha kishilarni o'z vasfida lol qoldirarmidi?

Qays tug'ilgandayoq yuragida ilohiy ishq olovlanadi. N.Komilov ta'biricha: «...uning loyi ishq olovi bilan qorilgan». Bunday kishining nasibasi esa hijron qiynoqlari, visol iztiroblaridir. «U o'zi bilan Alloh o'rtasida to'siq bo'lib turgan dunyo va jismdan qutulish iztiroblarini tortishi shart. Shuning uchun favqulodda holatlari kishilarni hayratda qoldiradi»¹. Ko'pchilikka notanish g'ayriodatiy bunday holatni tasavvuf ahli «Ilohiy jazba» deb nomlaganlar. Ana shu jazba tufayli solik Alloh dardida o'rtanadi. Bu dard uni fanolik sari yetaklaydi.

Qaysni go'dakligida bezovta qilgan ishq dardi Laylini ko'rgach qalbini yanada kuchliroq o'rtaydi. Laylining husnu jamoliga bardosh berolmay hushidan ketadi. «Hushdan ketish so'fiylarga xos holat. Ular Iloh yodida o'ta jazavaga berilganda, butun ruhiy quvvatini ishga solganda hushdan ketish ro'y beradi»².

Demak, Layli shunchaki ma'shuqa obrazi emas. Majnun uchun asosiy maqsad Alloh diydori, Layli esa bu yo'lda bir vosita, mahzar.

Dostonning birinchi bobida shunday misralar bor:

*Ey husnni dilpazir qilg'an,
El ko'nglini anga asir qilg'an.
Ey husng'a aylaganni shaydo,
Majnunlig' ila qilib huvaydo.
Ey kimmiki aylabon parivash,
Majnun anga yuz asiru g'amkash.
Ey har sorikim qilib tajalli,
Ul mazhar o'lub jahonda Layli.*

¹Komilov N. Tasavvuf va badiiy ijod. Yoshlik jurnali. 1991 yil. 8-son.

²O'sha manba.

*Ey oniki Layli aylab otin,
Majnun qilmoq qilib sifotin.*

Bu misralar dostonning umumiy mazmuni, falsafiy mohiyati haqida yorqin tasavvur beradi.

Qays uchun yagona yo‘l ishq yo‘lida jon berishdir. Ahmad Yassaviy bir hikmatida shunday deydi:

*Ishq dardini talab qildim, darmoni yo‘q,
Ishq yo‘lida jon berganning armoni yo‘q,
Bu yo‘llarda jon bermasa imkoni yo‘q,
Har ne qilsang oshiq qilg‘il, Parvardigor.*

Ana shu yo‘lda Qays Majnun nomini oladi. Majnun Layli degan so‘zdan boshqa so‘zni unutadi. Butun vujudi, tiliyu dili Layli deya tebranadi, oh chekadi. Qayoqqa boqmasin ko‘ziga Layli jilvalanadi. Faryod ko‘tarib yig‘laydi, yemoq-ichmoqni unutadi, nafs itligidan voz kechadi. Ishq va oshiqlikning bu xususiyati tasavvufda tafrid–yolg‘izlanish deb ataladi. Oshiq shunday bir hol darajasiga erishadiki, yaqinlaridan, inson zotidan uzoqlashadi.

Navoiy ishqni inson vujudini pishiradigan, uni har xil chiqindilardan tozalaydigan olov deydi. «Chiqindilar» insonning jismoniy talablari, inson ruhini ilohiyotdan ajratib turuvchi narsalardir. Ishq otashida toblanib, barcha noshoista xususiyatlardan xalos bo‘lgan, o‘zligini unutgan oshiqning ruhi ilohiyotga yetishadi. Qayoqqa qarasa, haqiqiy Yor ko‘ziga tashlanadi:

*Kim boqqali ixtiyor topti,
Har sorikim boqti yor topti.*

Majnun jayron kabi odamlardan hurkib qochadi. Qaysi sahroga oyoq bosmasin, o‘sha yerdagi kiyiklar unga ergashadi. Ahmad Yassaviy bir hikmatida oshiqlikning bu holatiga ishora qilib, shunday deydi:

*Yaxshi yanglig‘ cho‘llar aro qilg‘ay vatan,
Sahrolarda hamrohlari zog‘u zag‘an,
Hojat ermas oshiqlarg‘a bog‘u chaman,
Hizr, Ilyos hamroh kelib yurar bo‘lg‘ay.*

Majnun kezgan sahroyu biyobonlar ishq sahrolaridir. Uning vahshiy hayvonlar bilan do'st tutinishi uning butun olam bilan birlashish ramzidir. Bunga faqat tariqatning fano bosqichiga ko'tarilgan solik erishishi mumkin.

Doston yakunida Layli vafotini eshitgan Majnun uning qabilasi tomon qoplon kabi yugurib borar ekan, visol kuyini tarannum etadi shodlikdan ko'z yoshlari yomg'irdek oqadi. Nega? Nega u o'limni quvonch bilan qarshi olyapti? «O'lim-inson umrining so'nggi nuqtasi. Odamning ovozi so'ndimi, demak, u abadiy yo'qlikka mahkum. Tasavvufdagi vahdati vujud falsafasiga ko'ra o'lim umrning ikkinchi tomoni, ya'ni mangulik deb anglanadi. O'lim orqali Xudo bilan vahdat topish fanolikmas, baqolikdir. O'lsa tan o'ladi, jon aslo o'lmaydi»¹.

Shuning uchun Majnun ham o'limni shodlik bilan qarshi oladi. Chunki u butun umr vasliga intilib kelgan ma'shuqasining huzuriga o'tlanayotir.

M.Zokirov tasavvuf maslagi haqida gapirib, shunday yozadi: «Mistizm - vajd: tasavvuf ta'limotidagi mistika (vajd)ning bosh masalasi xudoga muhabbatdir. Ular xudo ishqidan bo'lak hamma narsani unutadilar. Tangriga muhabbat olovida yonish, ishq qozonida qaynash va nihoyat, yor vasliga erishish ularning oliy maqsadidir»².

Qays ham ana shunday oshiq -darveshlardan biridir.

So'fiylikning har bir maqomi va manzillaridagi ruhiy holat, bu manzillarni kashf etish mashaqqatlari, buyuk Allohning huzuriga talpinish, undan judolik izzatlarini hazrat Navoiyning har bir asarida takror-takror, lekin turfa ohanglarda jaranglaydi. «Xamsa» tarkibidagi dostonlarni shu nuqtayi nazardan o'rganish va tadqiq etishda navoiyshunos olimlarimiz N.Komilov, S.Olimov, B.Akramov, I.Haqqulov, R.Vohidovlarning xizmatlari beqiyosdir.

Tasavvufiy qarashlar «Nazmu-ul-javohir», «Arbain», «Munojot», «Mahbub-ul-qulub» singari asarlarida ham aks etgan³. Ulug' adib o'zigacha

¹Haqqul I. Tasavvuf va she'riyat. Toshkent, 1991. 124-bet.

²Zokirov M. Tasavvuf ta'limoti haqida. Sharq yulduzi. 1990-yil. 7-son.

³ «Munojot» talqinida prof. A.A'zamovning «Munojotnoma» (Namangan, 1997; Toshkent, 2001) risolasi, «Mahbubu-l-qulub»dagi so'fiylar axloqi talqini N.Komilovning «Darvesh axloqi ta'rifida» maqolasi (Filologiya masalalari, 2004, 1-son, B. 4-9)da aks etgan.

mavjud barcha ilmiy-ilohiy-adabiy ilmlarni izchil o‘rganib, ularni o‘z asarlarida mukammal bir suratda tartiblay olgan. Alisher Navoiy asarlaridagi fikr teranligi, ozod ruh, mustahkam iymon, tuyg‘ular nafosati va nihoyat, mukarram va ulug‘vor turk (o‘zbek) so‘zining qudratini uning tasavvufiy ruhdagi asarlarida ham ko‘rish mumkin. Navoiy davriga qadar ham, undan keyin ham yuzlab “Tarixi Nabaviy”lar, minglab “Qisasu-l-anbiyo” va “Ka’bu-l-axbor”lar yaratilgan. Lekin ular orasida Hazrat Navoiy yaratgan «Tarixi anbiyo...» nomli payg‘ambarlik tarixi nimasi bilan e‘zozli, hammaga kunday ravshan bo‘lgan tarixi Nabaviyning qaysi sifatlarini Hazrat ustivor bilib ta’rif qilgan, degan savolga ham asarning mutolaasidan batafsil javob topamiz¹.

N.Komilov Hazrat Navoiy talqinida “komil inson – bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi Mutlaq ruhga tutash, fayzu karomatdan serob, suratu siyrati saranjom, qalbi ezgu tuyg‘ularga limmo-lim pokiza zot, Hazrat Navoiy tili bilan aytganda:

*Foniyvasheki, ham so‘zidir pok, ham o‘zi,
Xush davlat ul kishigaki, tushgay aning ko‘zi*

deydilarki, unda to‘rt malak – Jabroil, Mikoil, Isrofil va Azroilning xislati, Xizrning payg‘ambarligi, oftobning saxovati mavjud. Uning ko‘hi jomi yetti falak, o‘n sakkiz ming olamni aks ettirib, g‘ayb asroridan xabar berib turadi. Uni yana Odil, Oqil, Fozil va Faqr xazinasi... Komil inson mutlaq iloh bilan insoniyat o‘rtasida vosita bo‘luvchi muqaddas xilqat»² deb yozgan. Asarda insoni komillikning sifatleri ham ayni o‘sha payg‘ambarlar sifati va hakimlar ta’rifi bilan barobar bayon qilinadi.

¹ Qayumov A. Nodir sahifalar. – T.: Fan, 1991. – B.40-92.

² Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob. – T., 1996. – B.143.

III BOB. KOMIL INSON TARBIYASIDA TASAVVUF VA BADIYY IJOD

3.1. Tasavvuf va komil inson muammolarining badiiy adabiyotda o'rganilishi

Butun ma'naviyat tarixi shuni ko'rsatadiki, sivilizatsiya degani – bu insonning o'z-o'zini anglashi, o'zini kamol toptirish uchun olib borgan kurashining hosilasidir.¹ Barcha dinlar, ta'limotlar, tafakkur daholari inson qobiliyati, ruhiyati va axloqini o'rganish, insonni tarbiyalash, to'g'ri yo'lga boshlab, barkamol, komil insonni shakllanishi bilan shug'ullanib kelgan. Hujjat ul-islom Imom Abu Homid G'azzoliy "Kimyoi saodat" asarida yozadilar: "Inson farishta va hayvon orasidagi maxluqdir. Hayvon rivojlanmaydi, chunki uning kamolot quvvati yo'q. Farishta ham rivojlanmaydi, chunki uning o'zi pok ilohiy nurdan iborat. Faqat insondagina rivojlanish, ruhiy kamolot xislati mavjud"².

Demak, insonni tarbiyalash, uning moddiy-hayvoniy hirslarini barham toptirish (garchi bu batamom mumkin bo'lmasa-da) mumkin, yoinki, tasavvuf ta'limotiga asosan, inson ruhi Mutlaq ruhning bir qismi bo'lganligi bois u moddiy tubanlikni tark etishi, Iloh sari parvoz qilishi kerak. Buning uchun inson o'z insonligini idrok etib, botiniy olamini poklab, ma'rifat nurlariga to'ldirib borishi shart.

Komil inson masalasi qadimgi davrdan bashariyatni qiziqtirib, u haqidagi ma'lumotlar og'zaki va yozma manbalarda, mifologiyaga bag'ishlangan asarlarda, mutafakkirlarning ijtimoiy-falsafiy merosi va badiiy adabiyotda saqlanib kelgan.

Tasavvufdagi komil inson tushunchasi ilohiylik va insoniylik tajassumining mukammal va oliy darajasi, odamlarning olamni butunlikda, azim uyg'unlikda ko'rish orzu-xayollari, kamolot mash'ali bo'lish barobarida

¹ Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. Toshkent, "Yozuvchi" nashriyoti. 143-bet.

² Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. Toshkent, "Yozuvchi" nashriyoti. 148-bet.

aniq shaxslar, valiyulloh insonlar rutbasini tan olish va qonunlashtirish hamdir. Chunki komil inson barcha ilmlardan, zohiriy va botiniy donishdan boxabar, qalbida gʻayb asror joʻsh urib turgan zot deb bilingan. Hikmat ahli va tasavvuf ahli fikriga koʻra, insonga faoliyat uchun inon-ixtiyor berilgan, u harakat qilib, komillik kasb etishi, niyatlariga yetishi mumkin.

Komil inson muammosi kishilik dunyosining azaliy ezgu niyati boʻlib, tarixiy taraqqiyot davrining barcha bosqichlarida oʻzining birlamchiligi, oʻta dolzarbligi bilan alohida ijtimoiy-maʼnaviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy ahamiyat kasb etib kelgan. Shuning uchun “Avesto” dan boshlab komillik masalasi tadqiqot predmetiga aylangan. Tabiat bilan jamiyat oʻrtasida hukm suruvchi har xil aloqa va munosabatlarni amalga oshiruvchi, uning neʼmatlarini tartibga keltirishda faol ishtirok etuvchi ongli magʻrur zot hamda olam moʻjizalarini anglashga intiluvchi komil inson masalasi har bir davr uchun oʻta ahamiyatli hisoblanadi.

Tasavvuf – inson kamoloti, axloqiy poklanish haqidagi ilm dedik. Bu tushuncha komil inson konsepsiyasida aniq koʻzga tashlanadi. Inson uchun qaygʻurish, uning maʼnaviy kamolotini oʻylash tasavvufning doimiy oʻzak masalasi boʻlib kelgan. Ayniqsa, insonning botiniy olami, ichki ziddiyatlari, ruh va jism orasidagi kurash soʻfiylarni koʻp qiziqtirgan. Ular insonda azaliy ikki qarama-qarshi kuch-rahmoniy va shaytoniy quvvatlar borligini, inson Allohning bandasi sifatida shayton qutqusini yengib, rahmoniy fazilatlarga ega boʻlishi lozimligini taʼkidlaydilar. Insonning hayotdagi oʻrni, jamiyat boʻlib yashash tartiblariga ham shu mavqedan turib qaralgan; chunonchi, ijtimoiy nizolar, urush-janjallar, mulkiy tengsizlikning tub mohiyati, bosh sababini ham tasavvuf inson tabiati va siyratidan qidiradi, insonning axloqini tuzatishni uning tabiatidagi salbiy, hayvoniy kuchlarni mavh etishdan boshlash kerak, deb tushuntiradi. Tasavvufchilar inson tabiatidagi salbiy kuchlarni umumiy nom bilan «nafs» yoki «nafsi ammora» deb atadilar va unga qarshi urush eʼlon qildilar. Mol-dunyo toʻplash, nafs ehtiyojiga qarab yurish, hirsu havas qatʼiy qoralandi, insonni (demakki, insoniyatni ham) noqislik va falokatlardan

qutqarishning birdan-bir to'g'ri yo'li – nafsni o'ldirib, qanoat bilan halol yashash, ruh – irodani chiniqtira borib, insonda insoniylikni, ya'ni ilohiylikni tantana ettirish zarur, deb targ'ib qilindi.

Tasavvuf tadrijiy taraqqiyotga ega ta'limot bo'lib, islom olamida VIII asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Tasavvuf, bir tomondan, din va shariat, ikkinchi tomondan, falsafa va hikmat ilmi bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan o'ziga xos ta'limotdir. XII asr oxiri XIV asr boshlari tasavvuf ta'limotining estetik tafakkur tarixida alohida bir mahsuldor davrdir. Bu davrga kelib, tasavvuf ham nazariy-ilmiy nuqtai nazardan, ham amaliy harakatchilik nuqtai nazaridan o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan edi. Tasavvuf adabiyotining gullashi ham shu davrga to'g'ri keladi. Ayniqsa, Muhyiddin ibn al-Arabiy, Yahyo Suhravardiy, Imom G'azzoliy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband singari mutafakkir shayxlar, Farididdin Attor, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumi kabi ulug' so'fiy shoirlar tasavvuf ilmining doirasini kengaytirdilar. Uni falsafa va hikmat bilan boyitdilar. Shuningdek, Ibn al-Arabiy va Jaloliddin Rumi kabi allomalarning asarlarida butun bir falsafiy tizim o'z ifodasini topdi, ular ilohiy kashf-u karomat, ruhiy-psixologik holatlar, botiniy latifliklar bilan birga real insoniy hayot haqida ham juda ko'p ajoyib fikrlarni bayon etdilar.

Tasavvufning Movarounnahrda kirib kelishi Yusuf Hamadoniy nomi bilan bog'liq. "U hazrat Turkistonda tasavvuf daraxtini o'rnatgan zotdir."¹ Uning darveshlik maktabidan O'rta Osiyoda darveshlarning eng yirik vakillari yetishib chiqdilar. Yusuf Hamadoniy Buxoro, Samarqand shaharlarida va Xorazmda faoliyat ko'rsatdi. Bu yerda o'z tasavvuf maktabiga asos soldi. Uning maktabidan kelgusida, to'rt mashhur shogird: Abdullo Barqiy, Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Abdulholiq G'ijduvoniylar yetishib chiqdilar. Va ulardan ikkitasi keyinchalik Turkistonda mashhur bo'lib, ommaviylashib ketgan "yassaviya" va

¹Ismoilov S. Naqshbandiya tariqatining ba'zi bir ildizlari xususida.–Mustaqil O'zbekiston.: Falsafa fanining dolzarb muammolari. 1-jild. –T.: b-17.

“xojagoniya” tariqatlarining asoschilari bo‘ldilar. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, islom dunyosi va tasavvuf estetik tarixiy taraqqiyotida qator turkistonlik muhaddislarning juda katta diniy-irfoniy va ma’naviy ta’siri borligi shubhasiz. Bular imom Buxoriy, Hakim at-Termiziy, Mahmud az-Zamahshariy, Burhonuddin Marg‘inoniyalar bo‘lib ularning xizmatini butun dunyo tan olgan. Turkistonlik Ahmad Yassaviy (vaf.1166), Najmiddin Kubro (1145-1221), Bahouddin Naqshband (1318-1389) kabi valiyalar esa tasavvufning jahonshumul tariqatlari asoschilaridir.

Tasavvufning xususiyatlaridan biri, faqat nazariy jihat bilan cheklanib qolmasdan, balki tamoyillarini tariqatlar yo‘li orqali amaliy tadbiiq etishdir. Ular orasidan qo‘llagan uslubiga ko‘ra, Tariqi abror (qalbi soflarning yo‘li) - bu riyozat va mujohada yo‘li bo‘lib, ushbu tariqatning o‘ziga xos estetik xususiyati unda axloqni go‘zallashtirish, qalbni poklash asos qilib olingan. Riyozatdan maqsad - nafs istaklarini bajarmaslik. Mujohada esa nafs istaklariga qarshi kurashish bo‘lib, shu tarzda qalb yomon xulqlardan tozalanib, ezgu axloq bilan bezanadi. Tariqi shutter (ishq va jazba ahlining yo‘li): bu ishq muhabbat, jazba yo‘li bo‘lib, bu yo‘lda yurgan solik ikkinchi holga, bir maqomdan ikkinchi maqomga o‘tish orqali ma’naviy sayr qilinadi. Shu bois bu yo‘lni “tariqi sayrin” ham deydilar. Solik go‘yo o‘lik misol hamma narsalardan voz kechib, xatto o‘z borlig‘ini ham yo‘q hisoblashi kerak. Tayfuriya tariqati asoschisi Abu Yazid Tayfur al-Boyazid Bastomiy (848y.v.e.) tasavvufda “sakar” ya’ni ilohiy ishq bilan yo‘g‘rilgan ruh jo‘shqinligiga ahamiyat bergan holni ustun deb qabul etgan. Nuriya tariqatida esa Abul Husayn Nuriy (907 y.v.e.) isor (boshqalarni o‘zidan afzal bilmoq), go‘zal axloq, farog‘at va suhbat tarzini yoqlagan. Usmon Turar “mumtoz” deb tilga olgan tariqatlardan qodiriya tariqati saxovat, rizo, sabr, ishorat, g‘urbat, sayohat, faqr va junli libos kiymoqqa, insonning ichki axloqiy go‘zalligiga ko‘p e’tibor bergan.

Islom dunyosining muhim va juda keng tarqalgan tariqatlaridan biri

mavlaviya tariqati boshqa tariqatlardan farqli o'laroq, ko'proq xalqning o'ziga to'q va san'atkor-u musiqashunoslar toifasi orasida keng tarqalgan. Bunda go'zal san'atlar va musiqa bilan bo'lgan yaqin aloqaning ham ta'siri bor. Ayniqsa turkiy tasavvuf va san'at musiqasining paydo bo'lishida bu tariqatning beqiyos xizmati singan. Bundan tashqari mavlaviya tariqati boshqa tariqatlardan farqli o'laroq, Turkiyada folkloriy ahamiyat kasb etgan.¹

O'rta asrlarda Movarounnahrda asosiy "Uch oltin tariqat" - Yassaviya tariqati (XII asr), Kubroviya tariqati (XII-XIII asrlar), Xojagon-Naqshbandiya tariqati (XII-XIV asrlar) shakllanib, keyingi asrlarda o'z taraqqiyotini boshidan kechirdi. *Yassaviya tariqati*. Yassaviya tariqatining asoschisi turkistonlik Ahmad Yassaviydir. Bu tariqatda muhim o'rin tutgan asoslar quyidagilardan iborat: *ma'rifatulloh, mutlaq jo'mardlik, rostgo'ylik, haqiqiy tavakkul va teran tafakkur*. Yassaviya tariqati ham boshqa tasavvufiy tariqatlar kabi "fano yo'li"ni "Haqqa vosil bo'lish" ni targ'ib etadi. Haqiqatda Yassaviy hayotida "fano" yo'liga amal qiladi va bunga yetishish uchun Muhammad Mustafo (s.a.v.) yo'lini tanladi. U hazrat, payg'ambarimizning "faqirligim-faxrimdir" qudsiy kalimalarini o'zining doimiy hayotiy shior qilib oldilar va bunga amal qildilar. Bu o'rinda "Faqr" tushunchasi ma'naviyatga aloqador, ya'ni u insonlarning kamtarinlikda, odob tavoze'da, go'zal axloqda yashashini anglatadi. Faqr yo'lining asosi bu hokisorlik, Yassaviy hazratlari iborasi bilan aytganda:

Boshim tuproq, o'zim tuproq, jismim tuproq,

*Haq vasliga yetarman deb, ruhim mushtoq.*²

Faylasuf olim M.Nuratova tasavvuf falsafasida bir necha yo'nalishlar mavjudligini ta'kidlab, bu borada yassaviy ta'limoti o'zlikni anglab, takabburlikni yo'qotib, fano xolda Haq Taoloning diydorini, jamolini ko'rishdan iboratligi hamda Haq Taoloning erkli ekanligi, ya'ni eng oddiy

¹ Turar Usmon. Tasavvuf tarixi.-T.: Istiqlol, 1999. B-115

² Yassaviy. Xikmatlar. -Toshkent, Istiqlol. 1993. 32-bet.

haqiqat ham Yaratganga bog‘liq ekanligini uqtiradi¹. Yassaviya tariqati ba’zi bir mualliflar yozganidek, “nisbatan sodda tariqat” emas, balki chin ma’nodagi xalqchil, ilg‘or va ahamiyatli, keng qamrovli tariqat ediki, u tasavvuf tadrijiy taraqqiyotida o‘zining munosib o‘rniga ega. U o‘zida umumiy tasavvufiy estetik g‘oyalarni ifodalab, bu borada boshqa tariqatlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Manbalarda Yassaviy ta’limoti nafaqat tasavvufiy, balki turkiy tasavvuf she’riyatining asoschisi sifatida dunyoga mashhurligi ham aytiladi. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, Qur’on g‘oyalarining adabiyotga ko‘chishi tasavvuf ta’limotining xalq orasida keng yoyilishi uchun zamin hozirladi. Boshqacha aytganda, “she’riyatda yashirin ma’nolar, tasavvuf tushunchalariga mo‘ljallangan alohida til paydo bo‘ldi, “lison ul-g‘arib” usulida yozilgan ruboiylar ko‘paydi. Endi adabiyot tasavvufga xizmat qiladigan illyustrativ material bo‘lib qolmay, balki o‘zi tasavvuf g‘oyalarini baralla targ‘ib eta boshladi, aniqrog‘i, tasavvuf g‘oyalari she’riyat g‘oyalariga aylandi”².

Kubraviya tariqati. Bir necha asrlar davomida Sharq-u G‘arb xalqlarining ma’naviyatida kuchli ijobiy ta’sir kuchiga ega bo‘lgan, tasavvufdagi kubraviya tariqati Vatanimiz sarhadi ko‘hna Xorazmda XII asrning so‘nggi choragi va XIII asrning boshlarida vujudga keldi. Xalq bu tariqatni ulug‘lab, ya’ni “Tariqati zahabiya”, ya’ni “oltin tariqat” deb atagan. Ushbu tariqatga Ahmad ibn Umar Abul Janob al-Hevaqiy al-Xorazmiy (1145-1221) asos solgan. Ahmad ibn Umar tarixda “Najmiddin”, “Kubro”, “Tammam ul-Kubro” (Eng buyuk xotima), “Shayx vali tarosh”, “Shayx Najmiddin Kubro” kabi sharaflil nomlar bilan ma’lum va mashhurdir. Ya’ni din va tasavvuf tarixidagi erishgan kamolotlari evaziga “Najmiddin” – arabcha “Din yulduzi”, “Kubro” – arabcha “ulug‘ olim”

¹ Qarang: Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg‘unligi. –Toshkent, “Universitet”, 2009. B. 29-30.

² Komilov N. Tasavvuf va badiiy ijod. // Yoshlik. №8, 1991. - 76-b

“Shayx valitarosh” – “Valiylar tarbiyachisi, valiylar yetishtiradigan Shayx” kabi nomlarni olgan. Kubraviya tariqatining mohiyati “O‘lmasdan burun o‘lingiz” hadisi bilan belgilanadi. Bu hadis sharifning mazmuni to jismonan o‘lishgacha, o‘z tanangizda mavjud ho-yu havas, istaklardan kechish kerakligini bildiradiki, bunday o‘lim inson ruhiyatini haqiqiy, abadiy go‘zal hayotga olib boradi. Bu yo‘l ruhni poklash yo‘lidir. Poklanish asosi esa Najmiddin Kubro talqiniga ko‘ra tana pokligi, xilvat, davomli sukut, ro‘za, zikr, taslimiyot, xotira pokligi, hidoyatga yo‘llovchi pir, ehtiyojga ko‘ra uyqu, yemoq va ichmoqda me‘yor. Ular inson ruhiyatiga ta’sir etadi. Mutasavvuf ruhoniylar kechinmalar, nozik holatlarni puxta bilganidan, shunga muvofiq “latoif” nazariyasini ishlab chiqdi. Bu nazariyaga binoan, inson ruhi ko‘zga ko‘rinmas bir latif markazlardan iborat. Bu ong va tuyg‘u, ruh va jism orasidagi bir narsa. U shunday nozikki, uni ilg‘ab olish mushkul. Ammo inson hayotida bu “latif” markazlarning ahamiyati katta.

Najmiddin Kubro faqatgina tariqat asoschisigina emas, balki ulug‘ shayx, buyuk donishmand, chin vatanparvar, milliy qahramon, mehribon ustoz, bag‘rikeng shijoatli inson edi. Uning tasavvuf tarixidagi xizmati Najmiddin Komilovning qaydiga ko‘ra, “javonmardlik g‘oyalari tasavvufga joriy etish bo‘ldi.”¹ Bu holat oddiy xalqni zulmdan qutqarish, ezgu, xayrli ishlarga hayrixohlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni o‘zida mujassam etish orqali namoyon bo‘ladi. Alloma javonmardlik ahli futuvvat harakati an‘anasi fidoyisi bo‘lganligi bois Vatan ozodligi, mustaqillik uchun kurashgan. Najmiddin Kubroning javonmardlik g‘oyalari bugungi kunda katta ahamiyatga ega ekanligi birinchidan, barkamol avlodni elim deb, yurtim deb yonib yashashga qalbida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda, ikkinchidan buyuk vatandoshimizning avlodlarga qoldirgan ham nazariy, ham amaliy merosi yosh avlod qalbida o‘z vatanidan, ajdodlaridan faxrlanish tuyg‘usini shakllantiradi, ularga munosib avlod bo‘lishga undaydi.

¹ Komilov N. Tasavvuf. –Toshkent: Mavorounnahr-O‘zbekiston, 2009. –403 b.

Bu tariqatning o'ziga xos estetik xususiyati botiniy axloqiy go'zallik bilan zohiriy go'zallikning mutanosiblikda, uyg'unlikda olinishidir. Bu uyg'unlik mashhur "dast ba koru dil ba yor" g'oyasida o'z in'ikosini topgan. Agar Yassaviya tariqatida "o'lmay turib o'lish", bu dunyoga bog'lab turgan o'tkinchi hoyu-havaslardan va umuman borliqdan voz kechib, "fano filloh" maqomiga yetish, doimo toat-ibodat bilan yashash targ'ib etilsa, Bahouddin Naqshband tariqatida esa toat-ibodat boshqacha tushuniladi. Naqshband fikricha, ibodat o'n qismdan iborat, ibodatning o'ndan to'qqiz qismi – halol kasb talabiga amal qilishdir va shundan o'ndan bir qismgina boshqa ibodatlardir – namoz, ro'za va boshqalar.

Naqshbandiya tariqati hozirgi kungacha ma'lum va mashhurdir. Shuning uchun ham bu tariqat komil insonni shakllantirishda axloqiy go'zallikni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Qolaversa, imon, tilak, intilishni o'zida mujassamlantirgan mashhur kalima "*Dast ba koru dil ba yor*" insonlarni imonga, bunyodkorlikka, go'zallikka chorlaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ma'naviy qadriyatlar yuksalishida o'ziga xos o'rin tutgan tasavvuf ta'limotining shakllanish jarayoni, tarixiy o'rmini ko'rsatib berish, tasavvufiy manbalarni xolisona tadqiq etish hamda uning insonparvarlik g'oyalari bilan uyg'unlashib, jahonshumul badiiy ijod namunalarining paydo bo'lishiga zamin yaratganini keng ko'lamda o'rganishni taqozo etmoqda.

Tasavvuf – inson kamoloti, axloqiy poklanish haqidagi ilm dedik. Bu tushuncha komil inson konsepsiyasida aniq ko'zga tashlanadi. Inson uchun qayg'urish, uning ma'naviy kamolotini o'ylash tasavvufning doimiy o'zak masalasi bo'lib kelgan. Ayniqsa, insonning botiniy olami, ichki ziddiyatlari, ruh va jism orasidagi kurash so'fiylarni ko'p qiziqtirgan.

Ular insonda azaliy ikki qarama-qarshi kuch-rahmoniy va shaytoniy quvvatlar borligini, inson Allohning bandasi sifatida shayton qutqusini yengib, rahmoniy fazilatlarga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydilar. Insonning hayotdagi o'rni, jamiyat bo'lib yashash tartiblariga ham shu mavqedan

turib qaralgan; chunonchi, ijtimoiy nizolar, urush-janjallar, mulkiy tengsizlikning tub mohiyati, bosh sababini ham tasavvuf inson tabiati va siyratidan qidiradi, insonning axloqini tuzatishni uning tabiatidagi salbiy, hayvoniy kuchlarni mahv etishdan boshlash kerak, deb tushuntiradi. Tasavvufchilar inson tabiatidagi salbiy kuchlarni umumiy nom bilan «nafs» yoki «nafsi ammora» deb atadilar va unga qarshi urush eʼlon qildilar. Mol-dunyo toʻplash, nafs ehtiyojiga qarab yurish, hirsu havas qatʼiy qoralandi, insonni (demakki, insoniyatni ham) noqislik va falokatlardan qutqarishning birdan-bir toʻgʻri yoʻli – nafsni oʻldirib, qanoat bilan halol yashash, ruh – irodani chiniqtira borib, insonda insoniylikni, yaʼni ilohiylikni tantana ettirish zarur, deb targʻib qilindi.

Komil inson – bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi Mutloq ruhga tutash, fayzu karomatdan serob, surati saranjom, qalbi ezgu tuygʻularga limmo-lim pokiza zot, Navoiy tili bilan aytganda:

Foniyvasheki, ham soʻzidur pok, ham oʻzi.

Hush davlat ul kishigaki, tushgay aning koʻzi.

Tasavvuf ahli sigʻingan ideal – Komil Inson aslida xalq ideali, adabiyot ideali edi. Bu hayotbaxsh taʼlimotning peshvolari yozib qoldirgan asarlar, soʻfiyona ruhdagi sheʼru dostonlarni mutolaa qilar ekanmiz, yorugʻlikning zulmga, xayrning sharrga, fayzu kamolning nuqsu noqislik, kaltafahmlik va nodonlikka qarshi omonsiz jangiga guvoh boʻlamiz. Voqean, tasavvuf shayxlari, zulm va qorongʻulik lashkariga qarshi maʼrifatni qurol qilib olib jangga kirgan pahlavonlarga oʻxshab ketadilar (Tustariy: «Maʼrifat jahl-nodonlikka qarshi jangdir»). Ular Kaʼba deb koʻngilni tan oladilar, koʻngil raʼyiga yuradigan, dunyoni koʻngil oraqli biladigan va koʻngilga sigʻinadigan odam Allohning sevgani deb chiqdilar. Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asaridan: «Ismoil Dabbos dedikim, haj niyati qilib, borurda Sherozga yetishdim. Bir masjidga kirdim. Shayx Moʻminni koʻrdimki, oʻlturib xirqasini yamaydur erdi, salom qildim va oʻlturdim. Mendan

soʻrdikim, ne niyating bor? Dedim: haj niyatim bor. Dedi: onang bor? Dedim: bor. Dedi: yonib onang mulozamatiga bor. Men ellik haj qilibmen – bosh yalang, oyoq yalang va zodu hamrohsiz. Barchasin senga berdim, sen onang koʻngli shodligin menga ber!»

Mohiyatan olganda, komil inson haqidagi tushunchalarning muxtasar magʻzi shundan iborat. Ammo bu haqda ulugʻ allomalarning qiymat va ahamiyatini yoʻqotmagan qarashlari, fikrlari bor. Komil inson tasavvuf adabiyotida koʻp marta tilga olinib, munozaralarga sabab boʻlgan va bu haqda maxsus kitoblar yozilgan. Shulardan Sayyid Abdulkarim Giloniy va Aziziddin Nasafiy (XIII asr)larning «Insoni komil» nomli risolalarini maxsus tilga olib oʻtish mumkin. Aslida esa komil inson tushunchasi birinchi marta Shayxi Kabir nomi bilan mashhur boʻlgan Muhyiddin Ibn Arabiy (1165–1240) tomonidan muomalaga kiritilganini qayd etmoq joiz.

Ibn Arabiy nazdida komil inson – bu aqli avval yoki nafsi avval, aqli kull tushunchalari bilan maʼnodoshdir. Chunki Tangri Taʼolo ilohiy nurdan ilk marta Aqli avvalni yaratdi va uning suratu shakli Komil Inson qiyofasida zuhur etdi. Shuning uchun “Alloh odamni Rahmon suratida yaratdi” degan hadis mavjud. Komil inson, shu tariqa, Allohning Rahmonu Rahim sifatlariga ega boʻldi, deydilar. Ibn Arabiyning fikricha, komil insonning yerdagi timsoli hazrati Paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v.)dir. Ul zot vujudida aqliy, ruhiy kamolot, dunyoviy va ilohiy bilimlar jamuljam edi. Paygʻambarimiz (s.a.v.) xalq va Haq muqobilida turardilar va orada vosita edilar. Shunday boʻlgach, hamma odamlarni ham va hatto anbiyo va avliyolarni, donishmandlarni komil inson deb atash joiz emas. Va agar Paygʻambardan oʻzga zotlarga nisbatan bu sifat aytilar ekan, buni shartli taʼrif yoinki shu ulugʻ martabaga hurmat-ehtirom belgisi sifatida qabul qilish kerak. Sayyid Abdulkarim Giloniy fikriga koʻra, har bir inson ikkinchisining oʻrnini bosadigan nusxadir va bir-birining qarshisida turgan koʻzgu kabidir. Bitta odamdagi xislat va sifat ikkinchisida aks etib turadi. Ammo farqi shundaki, bu akslanish baʼzilarida feʼl-harakat boʻyicha boʻlsa, baʼzilarida esa quvva, yaʼni xislat-xususiyatlar bilan namoyon boʻladi. Demak,

iste'dod va qobiliyat, xususiyat va sifatiga ko'ra, bir-biriga o'xshash odamlar behad ko'p. Bularni umumiy nom bilan xalq, odamlar, kishilar deb qo'ya qolamiz. Biriga qarab ikkinchisining xulq-u atvori, darajasiga baho bera olamiz. Ammo shunday komil va akmal kishilar borki, ular kamolotda nafaqat o'zga odamlardan, balki bir-biridan ham keskin farqlanib turadilar. Bularni anbiyo va avliyo deb ataymiz. Bularning ham darajalari bor: ba'zilar komil, ba'zilar akmal, bir qismi fozil, yana bir qismi afzal, yana bir guruhi esa afzalu akmaldir. Sayyid Abdulkarim Giloniy mazkur tasnifni aytib, yana qo'shib qo'yadi: «Komil inson, voqean, Muhammad (s.a.v.)dir va qolgan anbiyoyu avliyoning kamoloti unga nisbatandir, xuddi fozilning afzalga nisbatiday».

Shayx Omiliy deydikim, haqgo'y olimlarning fikriga qaraganda, olam komil inson haqiqati tufayli barqarordir, zero falaklar uning nafasi bilan aylanurlar, mulku malakut undan ta'lim olurlar. Shunday martabada komil insonni Haqning ko'zgusi deytilar. Haq Ta'olo O'z ismi va sifatlarini faqat komil insonda ko'radi. Shuni ham ta'kidlaydilarki, komil insongina Haq qudratining buyukligi, cheksizligiga guvoh bo'la oladi. Ibn Arabiy, Shayx Omiliy va Abdulkarim Giloniy qarashlariga diqqat qilinsa, komil inson bir kayhoniy vujud bo'lib ko'rinadi, uning sifatleri yerdagi foniy odamlar sifatiga, aniq shaxslar xislatiga o'xshamaydi. Unda biz jamiki g'ayritabiiy kuchlarning majmuini mushohada etganday bo'lamiz. Bu yerda albatta jismoniy kuch haqida gap bormaydi, zotan ilohiyot haqida gap borganda jismoniy kuch e'tibor emas. Chunki Xoliqiyat yaratgan jismlar ilohiy qudrat oldida arzimas va ojiz suratlardir. Komil inson bular nazarida olamlarni egallagan, olamlarga, barcha jonzotlar va insonlarga ta'sir eta oladigan, insoniyatni boshqaradigan bir Buyuk ruhdur. Ma'naviy – aqliy qudratdir.

Ammo Shayx Aziziddin Nasafiyning «Komil inson», «Maqsadi aqso», «Zubdatul haqoyiq» nomli va boshqa risolalarida komil inson masalasi bir muncha boshqacha yoritilgan. Unda bu tushuncha insonning paydo bo'lishi, taraqqiyoti, martabalar topishi bilan bog'liq holda olib qaraladi. Natijada biz Aziziddin ta'riflarida aynan hayotiy odamga xos belgilar,

axloqiy sifatlarni ham ko‘ramiz. Yana shuni ham aytish kerakki, Nasafiy islomdagi bir nechta ilmning insonga bo‘lgan qarashlari va munosabatini chog‘ishtiradi, insonni kayhoniy vujud sifatida ham, yer maxluqoti sifatida ham tahqiq va tadqiq etadi. Nasafiyda komil inson ruh tushunchasi bilan zich aloqada tekshiriladi. Inson martabalari ruh martabalari sifatida olib qaraladi.

Aziziddin Nasafiy komil insonga ta’rif berib yozadi: «Bilgilki, Komil inson deb shariat va tariqat va hakqiqatda yetuk bo‘lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to‘rt narsa kamolga yetgan bo‘lsin: yaxshi so‘z, yaxshi fe‘l, yaxshi axloq va maorif». Nasafiy sanagan sifatlarning dastlabki uchtasi, ya’ni yaxshi so‘z, yaxshi fe‘l, yaxshi xulq Zardusht kitobi «Avesto»dan olingandir («Guftori nek, kirdori nek, raftori nek»). Bu sifatlardan ziyatlangan odam yolg‘on, riyo va badkirdorlikdan chekinadi, hamma vaqt ezgu niyat bilan ezgu ishlarga tayyor turadi. Aziziddin Nasafiy yaxshi axloq haqidagi Zardusht so‘zi yoniga «maorif», ya’ni tasavvufiy poklanish talabini qo‘shib qo‘ygan. Uning fikricha, tariqat yo‘liga kirgan soliklar vazifa-maqsadi ushbu to‘rt fazilatni egallashdir. Kimki «o‘zida shu sifatlarni kamol toptirsa, u kamolga erishadi».

Nasafiyning mazkur ta’rifidan ikkita xulosa kelib chiqadi. Biri shuki, olim nazarida komil inson hayotdan tashqari bo‘lgan allaqanday mavhum zot emas, balki real odamdir. Yaxshi sifatlarni egallab borgan odam shunday martabaga ko‘tarila oladi. Ikkinchi xulosa shuki, Nasafiyga ko‘ra, komil inson martabasi tariqat va riyozat yo‘li bilan qo‘lga kiradigan yuksak martabadir.

Komil inson haqida yuqorida bayon etilgan fikrlarni o‘zaro jamlasak, quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

- Komil inson – insonlarning eng mukammali, eng oqili va eng donosi.
- Komil inson Iloh bilan odamlar orasidagi vositachi, ilohiy amr, g‘ayb asrorini oddiy odamlarga yetkazuvchi ulug‘ homiydir.

- Komil inson martabada Aqli kull (Aqli avval)ga teng. Alloh avval Aqli kullni, ya'ni Komil insonni yaratdi, keyin u tufayli boshqa maxluqotlar yaratildi.

- Komil inson ruhi azaldan ma'lum, u Tangri taolo yaratgan eng qudratli ruhdur.

- Komil inson shu sifatlari bilan mutloq ilohiy xislatlarni jamlagan kayhoniy mavjudlikdir, u agar oddiy inson suratida ko'rinsa ham, lekin ma'nan koinotni qamrab olgan hamisha bedor va hamma narsadan xabardor bir zotdir.

Shuning uchun har bir pok axloqli, ilohsevar shaxs komillikka intilishi va bu yo'lda nasiba olishi mumkin. Komillikning oliy belgisi Haq yo'lidan borib xalqqa foyda keltirishdir. Kishi o'z so'zi, amaliy ishlari, niyati bilan qanchalik odamlarga naf keltirsa, yomonlarni to'g'ri yo'lga solsa, Haq yo'lida fido bo'lsa, u shuncha komildir.

Islom dini va tasavvuf ta'limotlarida ham o'zlikni anlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. "Kimki o'zligini tanisa, robbini taniydi". Bu hadisda buyuk hikmat yashiringan. Uni bugungi kun muammolari nuqtai nazaridan quyidagicha talqin etish mumkin: har bir inson o'zi intilmasa, maqsadlar qanchalik ulug' bo'lmasin, biror-bir natija bermaydi. Shuning uchun ham Islom ahli, mutasavvuf allomalar insonni "olam mehvari" deb bilganlar. Ayni paytda ushbu hadis tasavvuf ta'limotida quyidagicha talqin etiladi. "Inson katta olamning kichraytirilgan nusxasi... Odam – ilohiy olamning ajralmas qismi, ilohiy olamdagi ilm va hikmat unda bor. Insonni Iloh olami bilan bog'laydigan javhar – ruhdur. Agar Iloh olamini bilmoqchi bo'lsangiz, insonni, ya'ni o'zingizni o'rganing, o'zingizni taning. Demak, Xudoni anglash, tanish insonni anglash va tanish orqali kechadi. Ammo o'zlikni anglash, o'zini tanish ruh va qalbni poklash, aqlu shuurni toblash, taqvo va tavba yo'li orqali boriladi".¹

N.Komilov Alisher Navoiy asarlaridagi komillik masalalarini o'rganib quyidagi nazariy fikrlarni bildiradi. Ulug' mutafakkirning "Farhod va Shirin",

¹ Komilov N. Tasavvuf. Tavhid asrori. – T.: O'zbekiston, 1999. 17-b.

«Layli va Majnun» dostonida ham tasavvuf ta'limoti nuqtai nazaridan badiiy timsollarni talqin qilish muhim o'rin egallaydi. Dostonda Farhod va Shirin, Layli va Majnun o'rtasidagi sevgi-muhabbat majoziy ishq, ya'ni Shirin, Laylilar siymosida Allohga bo'lgan ishq bir-biri bilan bog'lanib ketgan. Unda zohiriylisiz ilohiy ishqqa, dunyoviylisiz Haqqa yetishib bo'lmisligi to'g'risida fikr yotadi.

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, birinchidan, Navoiy nazarida komil inson xayoliy bir timsol emas, balki o'zida butun zohiriy va botiniy bilimlarni, insoniy fazilatlarni mujassam etgan real hayotda bor kishi. Ikkinchidan, Navoiy uchun Muhammad Payg'ambar boshqa nabiy'larga nisbatan yuksak darajada kamolga yetgan ulug' zot. Uchinchidan, axloqiy poklik, nafsni tiyish, jabr-zulm, adolatsizlik, haqsizlik singari hayot qiyinchiliklariga qarshi kurashish Farhod insonparvarligining o'zagini tashkil qiladi va komil inson sifatida shakllanishining asosi bo'lib xizmat qiladi. Unda naqshbandiylik tariqatining, futuvvat, ya'ni javonmardlik oqimining ta'siri seziladi. To'rtinchidan, sho'rolar davrida Navoiy dostonlaridagi ikki yoshning bir-biriga muhabbati faqat dunyoviy, zohiriy nuqtai nazardan talqin qilindi, vaholanki, komil inson g'oyasini tahlil qilganda, uning dunyoviy va ilohiy, zohiriy va botiniy jihatlari, ularning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini yoritish zarur masalalardan biridir.

3.2. Tasavvuf ta'limotida inson ma'naviyati va kamoloti masalasi

Komil insonni tarbiyalashga tasavvuf ta'limotida alohida e'tibor qaratilgan. Tasavvuf tom ma'nodagi insonparvarlik ta'limotidir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ye. E. Bertels: «Tasavvuf adabiyotini o'rganmasdan turib, o'rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin emas. Bu adabiyotdan xabardor bo'lmisdan Sharqning o'zini

ham anglash qiyin¹», – deya alohida ta’kidlaydi. Shu bois islom ta’limotidagi komil inson g’oyasini tasavvuf ta’limoti bilan uyg’un holda o’rganish maqsadga muvofiqdir. Tasavvuf ta’limotining yirik vakili Ibn al Arabiyning fikricha, «Tangri taolo ilohiy nurdan ilk marta Aqlli Avvalni yaratdi va uning murati shakli Komil Inson qiyofasida zuhur etdi. Shuning uchun “Halaqallohu odama alo suratar-Rahmonu», ya’ni Alloh-odamni Rahmon suratida yaratdi, degan hadis mavjud. Komil inson, shu tariqa, Allohning Rahmonu Rahim sifatlariga ega bo’ldi, deydi. ...Komil inson timsoli Muhammad payg’ambar timsolidir. Chunki u kishida aqliy ruhiy kamolot, dunyoviy va ilohiy bilimlar jamuljam edi. Alloh o’zining sifatlarini faqat komil insondagina ko’radi. Shu bois komil insongina Alloh jamolini ko’rishga muyassar bo’ladi, – deb ta’lim beriladi, tasavvuf ta’limotida. Demak, ma’naviy merosimizda, diniy ta’limotda komillik insonning qalbi, ya’ni botiniy go’zalligi bilan belgilanishiga alohida urg’u beriladi. Bu «Alloh sizning suratlaringiz va amallaringizga emas, balki qalblaringiz va niyatlaringizga boqar» singari hadislarda ham o’z aksini topgan. Aziziddin Nasafiy komil insonga ta’rif berib yozadi: «...bilgilki, komil inson shunday insondurkim, unda quyidagi to’rt narsa kamolga yetgan bo’lsin: yaxshi so’z, yaxshi fe’l, yaxshi ahloq va maorif». Mutafakkirning ushbu fikrlari Abu Homid G’azzoliy tomonidan kengroq ifodalanadi: «Alloh hamma uchun sevimlidir, chunki Unda inson tasavvuridagi barcha ezguliklar, insonni o’ziga tortuvchi, muhabbatiga sabab bo’luvchi jamiki sifat va hislatlar mavjud. Jumladan, inson o’ziga yaxshilik qila oladigan saxovatli odamlarni, adolatli shoxlarni, shuningdek barcha go’zal narsalar, nafosat olami, xushbo’y, xushsurat narsalar ham sevimli bo’lib, «sahiylar siymosida sahovatni, odillar siymosida adolatni, qahramonlar siymosida qahramonlikni sevamiz». Komil inson masalasida mulohaza yuritilar ekan, bevosita diniy va dunyoviy ma’naviy qadriyatlarimizda bu masalaga alohida e’tibor qaratilganini e’tirof etish zarur.

¹ Bertels ye. Sufizm i sufiyskiy literatura. M. 1965. S.124 // Manba uchun qaralsin: www.turklib.com

Tasavvuf o'zi buyuk bir romantik olamdir. Olamni Mutlaq Parvardigorning ijodi deb qarash, dunyoni Ilohning ko'zgusi deb tushuntirish va barcha go'zalliklar, qudratni Ilohdan deb hisoblashdir. Borliqni romantik ranglarda, shoirona xayoliy surat – timsollar tarzida, ilohiy nurning porlashidan doimiy xarakterda va ijodda deb tasavvur etish – bir Buyuk Poeziya. Jami go'zalliklar, yaxshiliklar, ezguliklar manbai Mutlaq Iloh, Qudrat va kuch, harakat va faoliyat ham Undan. Dunyodagi jami husnu jamol – Uning jamolining aksi. Inson go'zalligi Uning jamolining jilvasi, bu jamol olamda qancha ko'p jilo etgan bo'lsa, u shuncha ko'p go'zal bo'la oladi.

Inson ruhining go'zallikka, nafosatga tashnaligi Iloh go'zalligiga tashnalik oqibatidir. Yana buning ichida moddiy go'zallik va ma'naviy go'zallik, g'oya va fikr go'zalligi ham ajralib, e'tiborga olinadi. Go'zallikdan maqsad tafakkur go'zalligi, ma'naviy go'zallikni anglamoq, oliy javhar – Ruhiy azaliga monand narsalarning go'zalligini qabul qilmoqlikdir¹. Tasavvufning asosiy g'oyalaridan, estetik xususiyatlaridan biri mana shudir.

Tasavvufshunos olim N.Komilovning fikriga ko'ra, Navoiyning estetik qarashlarida har qanday hayratomuz go'zallikning yaratuvchisi va ijodkori "sun'i naqqoshi", Xudodir². Har bir modda, jism, jonzot, shu jumladan, inson ham bu ilohiy mavjudotning zarrasi, bo'lagi, aksi yanglig' namoyon. Har bir chiroyda Tangri taolo jamoli jilvalanib turadi. Navoiy e'tiqod qo'ygan falsafiy-estetik ta'limotga binoan, olam azaliy va abadiy yagona Ruhning o'z-o'zini sevib, o'z jamolini tomosha qilish istagidan paydo bo'lgan ko'zgudir.

¹ Komilov N. Tasavvuf.–T.: Movarounnahr-O'zbekiston. 2009 140-b

² Komilov N. Tasavvuf.–T.: Movarounnahr-O'zbekiston. 2009 151-b

XULOSA

1. Najmiddin Komilov o'zbek va Sharq mumtoz adabiyotining bilimdon, o'ziga xos uslubga ega tadqiqotchilaridan biridir. Xususan, tasavvuf, Alisher Navoiy ijodini talqin etish jarayonida olimning tadqiqotlari adabiyotshunoslik ilmi rivojida muhim o'rin tutadi.
2. Olimning o'zbek adabiyoti tarixi bilimdoni, targ'ibotchisi va tadqiqotchisi sifatidagi serqirra faoliyatini o'rganishda uning Sharq mumtoz adabiyoti, tasavvuf ilmiga doir tadqiqotlari, manbashunoslik va matnshunoslikka doir ishlari, tarjimalari va maqolalari manba vazifasini o'tay oladi.
3. Najmiddin Komilov yaratgan ilmiy, ilmiy-ommabop asarlar uning iste'dod qirralarini, tadqiqotchilik va ijodkorlik mahoratini, dunyoqarashini, adabiyot ilmi bo'yicha egallagan bilimlarini o'zida namoyon etadi. Uning hayot yo'li va ma'rifiy faoliyati hozirgi yoshlar uchun har tomonlama ibratdir.
4. Munaqqidning tadqiq usullari o'zbek adabiyotshunosligi metodologiyasini nazariy boyitishda o'z o'rniga ega. Xususan, uning tasavvuf adabiyoti va uning o'rganilishi sohasidagi ilmiy faoliyati, bu borada yaratgan asarlarining qimmatini va ahamiyati katta. Shu bilan birga Alisher Navoiyni anglashda uning ijodini tahliliy va talqiniy metod asosida tadqiq qilib o'rganish samaradorligi olim faoliyatida o'z isbotini topgan. Najmiddin Komilov mumtoz adabiyotni tushunish va tushuntirib berishda yuksak mahorat sohibi ekanini sharh, tahlil, talqin xarakterda yaratilgan asarlari orqali yorqin ko'rsata bildi.
5. Bugungi kunda ham tasavvuf g'oyalarining yoshlarning ma'naviy kamoloti va ruhan pokligini tarbiyalashdagi ahamiyati katta. Tasavvuf xalq she'riyatiga kirib borib, uning xazinasini o'ziga xos mavzular va g'oyalar bilan boyitganligi, unga insoniylik g'oyalari muhrini bosganligi xalqimizning bebaho ma'naviy boyligi ekanligini ko'rsatib turadi.
6. IX-XII asrlarda tasavvuf g'oyalari Markaziy Osiyo shaharlari va qishloqlarida keng tarqaldi, dunyoga mashhur mutasavvif olimlar Inom Buxoriy, Iso Termiziy, Inom Moturidiy, Ahmad Yassaviy kabi o'nlab avliyo-

donishmandlar tasavvuf ta'limotini yuksaklikka ko'tardilar. Tasavvuf ta'limotida inson, uning hayotining axloqiy asoslari to'g'risida masalalar muhim o'rin egallagan. Tasavvuf ma'naviy boylikni haqiqiy boylik deb hisoblagan.

7. Adabiyotshunosning mumtoz shoirlar haqida, Sharq adabiyotida tasavvuf adabiyotining maydonga kelishi va taraqqiyotiga doir e'lon qilingan asarlari hamma davr uchun ahamiyatli sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz”, I jild. Toshkent: “O‘zbekiston”. 2017. 434 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // «Xalq so‘zi», 2017 yil 20 sentyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaati. // Xalq so‘zi, Toshkent. 2017. -№ 258 (6952).
4. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.:O‘zbekiston, 2008. – 175.

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdullayev A. Tasavvuf va uning namoyandalari (Ilmiy-ommabop risola)- Termiz. 2007. B-198.
2. Abu Homid G‘azzoliy. Kimyoi saodat. T.: Movarounnahr, 1998.
3. Abu Homid G‘azzoliy. Ihyo ulum ad-din. T.: Movarounnahr, 2001.
4. Badiiy adabiyot va tasavvuf timsollari. To‘plam. Toshkentda davlat Sharqshunoslik instituti. Mas’ul muharrir: f.f.d.prof. A.Quronbekov. Toshkent, 2010. B-200.
5. Бертельс Е.И. Суфизм и суфийская литература. Изображение труды // Бертельс Е.И., Отв. Ред. А.Н. Болдырев, Сост. М.Н. Оманов.- Москва: Наука, 1965. – 524 s.
6. Boltaboyev H. Islom tasavvufi manbalari. – T.: O‘qituvchi, 2005. – 399 b.
7. Valixo‘jaev B. Mumtoz siymolar. I jild. – Toshkent: Xalq merosi nashriyoti, 2002. – B. 260.
8. Qobilov U. Ilohiyot va badiiyat. – Toshkent: Nihol, 2008. – B. 120.
9. Islom. Ensiklopediya. – Toshkent: O‘zME, 2017. – B. 480.

10. Rafiddinov S. Shariat, tariqat va haqiqat // Naqshbandiya, 2010. 1-son. – B. 14.
11. Olim S. Ishq, oshiq va ma'shuq. – Toshkent: Fan, 1992. – B. 88.
12. Chori I. (I. Haqqul) Tasavvuf lug'ati // Tafakkur, 1999. 3-son. – B. 126.
13. Mullaxo'jaeva K.T. Alisher Navoiy g'azallarida tasavvufiy timsol va badiiy san'atlar uyg'unligi: Filol. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2005. – B. 28.
14. Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – Toshkent: Movarounnahr, 2004. – B. 186.
15. Juzjoniy A. Tasavvuf va inson. – T.: Adolat, 2001. – 192 b.
16. Islom ensiklopediyasi. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004. – 320 b.
17. Komilov N. Tasavvuf. T.: O'zbekiston, 2009. – 448 b.
18. Komilov N. Tasavvuf va badiiy ijod. // Yoshlik. №8, 1991. - 76-b
19. Komilov N., Yoqubov A. Markaziy Osiyo xalqlari tafakkuri rivojida tasavvufning o'rni. – T.: Akademiya, 2005. – 84 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Muhammad Siddiq Rushdiy. Avliyolar sultoni, Turonlik valiylar / Ostonaqulov I. nashrga tayyorlagan. – T.: Kamalak, 1995.– 171 b.
2. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi (Turk tilidan N.Hasan tarjimasi) – T.: Istiqlol, 1999. – 180 b.
3. Haqqul I. Taqdir va tafakkur. – T.: Sharq, 2007. – 336 b.
4. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoni; Axloqi Muhsiniy. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. – 376 b.
5. Ibrohim Haqqul. Irfon va idrok. Toshkent. «Ma'naviyat», 1998.
6. Komil inson haqida to'rt risola. Fors tilidan Najmiddin Komilov tarjimasi. Toshkent: «Ma'naviyat», 1997.
7. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. Toshkent: «Sharq», 2004
8. Sirojiddinov Sh. O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. "Yangi asr avlodi" nashriyoti. Toshkent, 2011. B-200.

9. Vohidov R. Ilohiy ishq jozibasi (Professor Najmiddin Komilov suratiga chizgilar). Samarqand: Zarafshon, 1998.16-17-betlar.
- 10.Ochilov E. Najmiddin Komilov - navoiyshunos. // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali 1 / 2017.B-37-44.
- 11.Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 17-jild. – T., «Fan». 1999
- 12.Homidiy H. Tasavvuf allomalari / Homidiy H., Mas’ul muharrir: Komilov N. – T.: Sharq, 2004. – 208 b.
- 13.Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – Buxoro, 1994. – 208 b.
- 14.Muhiddinov M. Komil inson – adabiyot ideali. Mas’ul muharrir: N.Komilov.– T.: Ma’naviyat, 2005. – 208 b.
- 15.Olim S. Ishq, oshiq va ma’shuq. – T.: Fan, 1992. – 80 b.
- 16.Zaripova G. Naqshbandiya tariqatida ta’lim-tarbiyaning o‘ziga xos pedagogik texnologiyasi. // Pedagogika fanlari ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 201.. B-26.
- 17.Po‘latov H., Mamatov M. Tasavvuf tarixidan lavhalar. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. B-320
- 18.Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. T.: Movarounnahr, 2004. B-280.
19. Zokirov M. Tasavvuf ta’limoti haqida // Sharq yulduzi. — Toshkent, 1990, 7 son,- 171—173 b.
- 20.Ibrohim Haqqul, Sayfuddin Rafiddin. Tasavvuf ko‘ngil husni. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati haftaligi.- Toshkent. 1991, 22- fevral.
- 21.Haqqul I. Navoiyga qaytish. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 222.

Internet saytlari:

1. www.e-adabiyot.uz (o‘zbek va jahon adabiyotiga doir sayt)
2. www.kh-davron.uz (shoir va tarixchi Xurshid Davron kutubxonasi sayti)
3. www.islom.uz (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning ijtimoiy-ma’rifiy sayti)

4. www.ziyouz.zu (ilmiy, ijtimoiy-ma'rifiy sayt)
5. www.turklib.com (Sharq adabiyoti, san'ati va madaniyatiga doir kutubxona sayti)
6. www.scopuc.com (Xalqaro va jahon adabiyotiga doir sayt)